

**KURBANOV GANI ABILOVICH**

**OLY HARBIY TA'LIM  
MUASSASALARI O'QITUVCHILARINING  
AKMEOLOGIK MEXANIZMLAR ASOSIDA  
KASBIY KOMPETENSIYASINI  
RIVOJLANTIRISH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
MIRZO ULUBEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI HARBIY TAYYORGARLIK O‘QUV MARKAZI**



**KURBANOV GANI ABILOVICH**

**OLIV HARBIY TA'LIM MUASSASALARI  
O'QITUVCHILARINING AKMEOLOGIK  
MEXANIZMLAR ASOSIDA KASBIY  
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH**

**MONOGRAFIYA**

**pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent, polkovnik K.A. Xaydarov tahriri ostida**

**Toshkent – 2024**

**UDK: 378.096:355.23-057.8(575.1)**

Monografiya oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida, tarixiy va ijtimoiy-psixologik omillari, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikalarini amaliyotga joriy etishda dunyodagi rivojlangan mamlakatlari Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Yaponiya, Finlyandiya, Singapur, Turkiya, Shvetsiya va boshqalarning ilg'or tajribalari inobatga olingan bo'lib, mazkur monografiyada akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari pedagogik muammo sifatida, o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va metodologik asoslari ochib berilgan.

**Kurbanov G.A.** Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish: Monografiya / pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, polkovnik K.A. Xaydarov tahriri ostida. – T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi, 2024. – 220 b.

***Taqrizchilar:***

**Tagayev V.I.**, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi boshlig'ining moddiy-ta'minot turlari bo'yicha o'rinbasari, dotsent, podpolkovnik

**Medetova R.M.**, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo'lim mudiri, pedagogika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

“Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish” nomli monografiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'quv-uslubiy kengashi tomonidan muhokamadan o'tkazilgan va (2024-yil 29 noyabr 3-sonli bayonnoma qaroriga asosan) tasdiqlangan.

## KIRISH

Jahon harbiy ta'lim muassasalarida akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi amaliyotga keng tatbiq etilmoqda. YUNESKO (UNESCO IST Competency Framework for Teachers)ning ko'rsatmalarida o'qituvchilar rivojlanayotgan bilimlar jamiyati talablariga javob beradigan o'quv ishlarining usullari va tashkiliy shakllarini qo'llashlari kerakligi aytilgan [147]. Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikalarini amaliyotga joriy etishda ilmiy tadqiqotlar Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Yaponiya, Finlyandiya, Singapur, Turkiya, Shvetsiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda yirik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy ishlar olib borilmoqda.

Jahonning ilg'or ilmiy-tadqiqot muassasalarida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikalarini ishlab chiqish, kasbiy kompetensiyani konseptual asoslash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga "kasbiy kompetensiya" tushunchasini ochib beradigan ilmiy tadqiqotlar, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida pedagogik sharoitlarni takomillashtirish, ta'lim muhitida normativ, moddiy-texnik va axborot bazasini takomillashtirish bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Davlatimizda so'nggi yillarda milliy oliy harbiy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'limning maqsadlari va yakuniy natijalarini belgilab beruvchi va akmeologik mexanizmlarga asoslangan oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni tashkil etishga rahbarlik qiluvchi davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq ta'lim sifatini oshirishning samarali yo'nalishlarini dolzarblashtiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonida "Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan

yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish” [10] ustuvor vazifa etib belgilandi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi samarali qo‘llash boyicha tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishni taqozo etmoqda. Oliy harbiy ta‘lim muassasalarining o‘quv jarayoniga akmeologik mexanizmlarni amalga oshirish zarurati va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartirish uchun asos bo‘lmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada O‘zbekiston Respublikasi 2018-yil 9-yanvardagi O‘RQ-458-son “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi [7], 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-367-son [8] va O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi [192] qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi [10], 2020-yil 27-fevraldagi PF-4623-sonli “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [11], 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [13] farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori [14], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi VM-140-son “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori [22] hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

O'qituvchilarda kompetensiya va kompetenlikni rivojlantirish hamda pedagogik jihatlarini inobatga olishni tadqiq etgan respublikamiz olimlari R.X. Djurayev [56], O. Jamoliddinova [65], X.I. Ibraimov [73], A. Kuranboyev [92], Sh.Q. Mardonov [104], N.A. Muslimov [117], O. Musurmonova [118], G.A. Ne'matova, N.M. Egamberdiyeva, M. Quronovlar [73]; oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini zamonaviy metodikalar asosida o'qitish masalalari hamda nazariy va uslubiy asoslari Z.Sh. Alimardonov [27], S.Y. Ahrorov [33], A.A. Vaxobov [46], F.A. Dosumxodjayev [63], S.O. Otamurodov, R.V. Pantin [129], A.A. Uzoqov, F.U. Umarov [157], K.A. Xaydarov [158], B.V. Xasanboyev [160], A.R. Xonimqulov [165], I.Y. Egamberdiyev [174], N.J. Eshnayevlar [179] tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan N.O. Verbiskaya [48], V.A. Glebov [51], I.F. Golovseva [52], I.D. Demakova [57], Ye.A. Demina [58], S.I. Zimin [70], I.A. Zimnyaya [71], D.A. Ivanov [76], Ye.A. Ignateva [77], I.F. Isaev [79], Ye.V. Karacheva [82], A.M. Leontev [95], N.N. Pachina [131], S.S. Sedova [142], D.A. Xlistunov [162], M.M. Shexter [171] tomonidan oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorij olimlari J.From [188], J. Howell [189], Lab dos Santos [190], K. Mamchur [192], M. Vaintraublar [193] kasbiy kompetensiyaning mohiyati, ta'lim va tarbiyada ahamiyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Biroq oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini qo'llashning pedagogik xususiyatlari, mazmuni, mazkur jarayonni amalga oshirish modeli va texnologik tizimi ishlab chiqilmagan. Bu esa, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini samarali qo'llashni taqozo etadi.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasining 2022-yil 26-avgustdagi 17/932-sonli “MPQ” shifrdagi innovatsion loyihada doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining mazmun-mohiyatini va tuzilmasini aniqlashtirish;

oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini baholash mezonlarini takomillashtirish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni belgilanib, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi va O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazining 188 nafar respondentlari ishtirok etdi.

**Tadqiqot predmetini** oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni, shakli, metodi va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot davomida oliy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha meyoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, qiyosiy, deskriptiv statistika va korelyatsion tahlil, sintez, taqqoslash, sotsiologik usullar (anketa, suhbat, intervyu), pedagogik kuzatish, tajriba-sinov ishi, matematik va statistik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar mazmuniga (kasbiy faoliyatning qiymat yo'nalishlarini aniqlash, kasbiy maqsadlarni to'g'ri belgilash, kasbiy motivatsiya va professional muvaffaqiyatga intilish) doir tuzilmalari, o'zaro aloqadorligi, rivojlanish funksiyalari (madaniyatlararo muloqot, o'z-o'zini anglash va transformatsiya) belgilanishi asosida aniqlashtirilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimlilik, ilmiylik, ketma-ketlik, uzluksizlik, izchillik, ko'rgazmalilik kabi tamoiyllarga muvofiq amaliyotga tatbiq etilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini kasbiy o'zini o'zi anglash qobiliyati, kasbiy diqqat, tafakkurning ijtimoiy ahamiyatliligi, aniq va nostandart vaziyatlarda pedagogik faoliyatni tashkil eta olishi, kasbiy etuk pedagog darajasiga erishish barqarorligini ta'minlash asosida modeli takomillashtirilgan;

pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida akmeologik mexanizmlarning baholash mezonlari (kommunikativ, hamkorlik, kognitiv, praksiologik) va uning shakllanish darajalari (yuqori, o'rta, past) asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi rivojlantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda o'z aksini topgan:

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik ta'minot takomillashtirilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasini baholash uchun diagnostik materiallar ishlab chiqilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturi ishlab chiqilgan;

“Kiyim-kechak ta'minotini tashkillashtirish” darsligi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** o'rganilayotgan muammo chuqur nazariy tahlil qilinganligi, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida shaxsiy pozitsiyalarning nazariy-uslubiy asosliligi, tadqiqot vazifalariga mos keladigan nazariy va amaliy usullar amalga oshirilganligi, o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari asosida tajribasinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pedagogik kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda o'qituvchining faoliyati, “kasbiy kompetensiya” tushunchasining pedagogik kategoriya sifatidagi mazmun-mohiyati, mazkur jarayonning tuzilmasi, komponentlari, asosiy jihatlari, funksiyalarining aniqlashtirilganligi, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ochib berilganligi va pedagogik imkoniyatlarning yoritib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli, mazkur modelni amaliyotga joriy etishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirilganligi, o'qituvchi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ishlab chiqilgan metodikasi kasbiy tayyorgarlikning maqsadi, mazmuni va protsessual vositalarini o'z ichiga oladi, auditoriya va auditoriyadan tashqari

mashg'ulotlarda oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir amaliy topshiriqlar, o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining mazmuni (kasbiy faoliyatning qiymat yo'nalishlarini aniqlash, kasbiy maqsadlarni to'g'ri belgilash, kasbiy motivatsiya va professional muvaffaqiyatga intilish)ga doir tuzilmasi, o'zaro aloqadorligi, rivojlanish funksiyalari (o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot va transformatsiya) "Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish" mavzusidagi metodik tavsiyalarning mazmuniga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 21-oktyabrdagi 10/2215-sonli dalolatnomasi). Natijada, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'quv rejalari va dasturlari, metodik ta'minotini takomillashtirishga xizmat qilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimlilik, ilmiylik, ketma-ketlik, uzluksizlik, izchillik, ko'rgazmalilik kabi prinsiplarga muvofiq amaliyotga tatbiq etish bo'yicha takliflar "Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish" metodik tavsiyalarning mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 21-oktyabrdagi 10/2215-sonli dalolatnomasi). Natijada, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida pedagogik shart-sharoitlar takomillashtirilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini kasbiy o'zini o'zi anglash qobiliyati, kasbiy diqqat, tafakkurning ijtimoyi ahamiyatligi, aniq va nostandart vaziyatlarda pedagogik faoliyatni tashkil eta olishi, kasbiy etuk pedagog darajasiga erishish barqarorligini ta'minlash asosida modeli takomillashtirilishi, uning maqsadli, mazmunli va natijali bloklari mazmuni aniqlashtirilishi, samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqilishi bo'yicha takliflar "Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish" mavzusidagi metodik tavsiyalarning mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 21-oktyabrdagi 10/2215-sonli dalolatnomasi). Natijada, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan;

akmeologik mexanizmlarning baholash mezonlari (kommunikativ, hamkorlik, kognitiv, praksiologik, universal, kreativ) va uning darajalari (yuqori, o'rta, past) asosidagi takliflar ilmiy-tadqiqot jarayonida keng qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 21-oktyabrdagi 10/2215-sonli dalolatnomasi). Natijada, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun pedagogik imkoniyatlari yaratilgan.

**I-BOB. OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI**  
**O'QITUVCHILARINING AKMEOLOGIK MEXANIZMLAR**  
**ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING**  
**ILMIY-METODIK ASOSLARI**

**1.1-§. Akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari**  
**o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning**  
**ilmiy-metodik asoslari pedagogik muammo sifatida**

Globalashuv sharoitida malakali o'qituvchilarini tayyorlash masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Har doim malakali o'qituvchilar jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini ta'minlashda etakchi o'rinni egallagan. O'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi "kompetentlik" darajasi tushunchasida o'z ifodasini topadi.

Har qanday sohadagi mutaxassisning kasbiy kompetensiyalar uning amaliy faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, so'nggi yillarda O'zbekistonda o'qituvchilarining malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir o'qituvchi uchun kasbiy faoliyatni tashkil etishda kompetensiyasini namoyon etish zarur.

Kompetensiya mutaxassis tomonidan nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishni, kasbiy tajriba va shaxsiy fazilatlar majmuasining mavjudligini va ulardan bevosita amaliyotda samarali foydalanishni o'z ichiga oladi.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ularning faoliyati samaradorligini oshirishga qiziqish va intilishlarini shakllantirishga ta'sir qiladi. Kompetensiya mutaxassis tomonidan nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishni, kasbiy tajriba va shaxsiy fazilatlar majmuasining

mavjudligini va ulardan bevosita amaliyotda samarali foydalanishni o'z ichiga oladi.

Kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun "kompetensiya" tushunchasi qo'llaniladi. Har qanday sohadagi kasbiy kompetensiya deganda, mutaxassisning amaliy faoliyatga tayyorligi tushuniladi. Bu erda tayyorgarlik darajasini baholash juda muhimdir. Shuning uchun so'nggi yillarda O'zbekistonda o'qituvchilarining malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy davlatlar ham tobora ko'proq ma'lumot va bilimlarga tayanmoqdalar. Buning uchun quyidagilar talab qilinadi: axborot bilan ishlash uchun innovatsion va raqamli texnologiyalaridan qanday foydalanishni biladigan, aks ettirishga, muammolarni hal qilishga va yangi bilimlarni ishlab chiqarishga qodir mutaxassislarni tarbiyalash; har kimga ko'proq bilimdon va topqir bo'lishga yordam berish, ularning hayotiy traektoriyasini samarali boshqarish, to'laqonli va band hayotdan zavqlanish; barcha fuqarolarni jamiyatda to'liq ishtirok etishga undash, ularning hayotiga ta'sir qilishi mumkin; madaniyatlararo tushunishni rag'batlantirish va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga ko'maklashish.

Ushbu vazifalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari bilan belgilanadi va zamonaviy dunyoda ta'lim tizimlari ishining asosini tashkil etadi. Ushbu maqsadlarga o'qituvchilarning tegishli tayyorgarligisiz erishish mumkin emas. Shu sababli, YUNESKO axborot texnologiyalarini yaratish bo'yicha jahon yetakchilari va maktabni axborotlashtirish sohasidagi yetakchi ekspertlar bilan hamkorlikda o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyasiga qo'yiladigan talablarni YUNESKO (UNESCO ACT Competency Framework for Teachers) qayd etuvchi xalqaro tavsiyalar ishlab chiqdi. Ushbu vazifalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari bilan belgilanadi va zamonaviy dunyoda ta'lim tizimlari ishining asosini tashkil etadi. Ushbu maqsadlarga o'qituvchilarning tegishli tayyorgarligisiz erishish mumkin emas. Ushbu talablarga javob beradigan o'qituvchilar axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari bilan ta'minlangan ta'lim muhitida o'quv jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishga qodir. YUNESKOning tavsiyalari shuni ta'kidlaydiki, zamonaviy o'qituvchi texnologik jihatdan savodli bo'lishi va talabalarida tegishli texnologik ko'nikma va malakalarni shakllantirishi etarli emas.

Zamonaviy o'qituvchi kursantlarga muvaffaqiyatli hamkorlik qilish, yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, ko'nikmalarini o'rganish va natijada to'laqonli fuqarolar va ishchilar bo'lish uchun AKTdan foydalanishda yordam berishi kerak. Shunday qilib, tavsiyalar o'qituvchilar ishining barcha jihatlariga ta'sir qiladi. Ular orasida: axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limdagi rolini tushunish (ta'lim siyosati bilan tanishish, ta'lim siyosatini tushunish, innovatsiyalarni boshlash); o'quv dasturi va baholash (asosiy bilimlar, bilimlarni qo'llash, bilimlar jamiyati aholisining ko'nikmalari); pedagogik amaliyotlar (axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, murakkab muammolarni hal qilish, o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyati); texnik va dasturiy vositalar (asosiy texnologiyalarni tarqatadigan asboblari, murakkab vositalar); o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish (o'quv ishlarining an'anaviy shakllari, hamkorlik guruhlari, o'quv tashkiloti); kasbiy rivojlanish (kompyuter savodxonligi, yordam va murabbiylik, o'qituvchi kursant ustasi sifatida).

Tavsiyalar ta'limni axborotlashtirishga uchta yondashuvni hisobga olgan holda tuzilgan bo'lib, ular axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlangan ta'lim muhitida ishlashni o'zlashtirgan o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishining tegishli bosqichlari bilan bog'liq. Birinchi yondashuv – "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash" – o'qituvchilardan kursantlarga o'quv ishlari samaradorligini oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda yordam berish qobiliyatini talab qiladi. Ikkinchisi – "Bilimlarni o'zlashtirish" – o'qituvchilardan kursantlarga o'quv fanlari mazmunini chuqur o'zlashtirishda yordam berish,

olingan bilimlarni real dunyoda yuzaga keladigan murakkab muammolarni hal qilishda qo'llash qobiliyatini talab qiladi. Uchinchi – “Bilim ishlab chiqarish” – o'qituvchilardan kursantlarga yordam berish, jamiyatning barkamol rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun zarur bo'lgan yangi bilimlarni ishlab chiqarish va yaratish qobiliyatini talab qiladi. YUNESKO hujjatlarida hamma tomonidan ta'limning istalgan natijasi sifatida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan kompetentsiyalar doirasi qayd etilgan.

Xalqaro ta'lim komissiyasining hisobotida J. Delor ta'limga asoslangan “to'rtta ustun”ni shakllantirdi (bilishni o'rganish, qilishni o'rganish, birgalikda yashashni o'rganish, yashashni o'rganish) va asosiy global kompetentsiyalarni aniqladi.

Shunday qilib, J. Deloruga ko'ra, ulardan biri “nafaqat kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun, balki turli xil ko'p vaziyatlarni hal qilish va guruhda ishlash imkoniyatini beradigan kompetentsiyani yanada kengroq o'rganish”.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan zamonaviy oliy ta'limni yanada rivojlantirish, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev 2018-yil 24-oktyabrda oliy ta'limni yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda integratsiyani kengaytirish masalalari bo'yicha yig'ilishda shunday dedi: “iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida oliy ta'lim tizimi rivojlanishning “lokomotivi” bo'lish o'rniga, zamon bilan hamnafas emasligi achinarli. Achchiq haqiqat shundaki, bizda mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlarga javob beradigan, yoshlarni kasblarga o'rgatadigan, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantiradigan tizim yo'q”.

Davlatimiz rahbariyati tomonidan bu masalani samarali yechishda respublikada bir qancha ishlar amalga oshirildi: 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil qaroriga asosan 2020-2021-o'quv yilidan boshlab Toshkent shahridagi oliy ta'lim muassasalaridagi 11 harbiy kafedralari asosida

O‘zbekiston milliy universitetida Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi tashkil etildi. 2) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining qaroriga binoan 2021-2022-o‘quv yilida oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha magistraturaga o‘qishga qabul qilindi. 3) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2022-yil 28-iyundagi 469-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasining Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakultetiga 2023-yilda nomzodlarni o‘qishga qabul qilishni tashkillashtirish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi buyrug‘i qabul qilindi. 4) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarining 2022-yil 10-noyabrdagi 169-sonli “2022-2023-o‘quv yilidan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasining Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakulteti magistraturasining sirtqi ta‘limiga nomzodlarni saralash va qabul qilish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga asosan oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari harbiy pedagogika va psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha magistraturaga o‘qishga qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning 5-bob “Ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” 44-moddasining 1-xatboshida “Tegishli ma‘lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega” va 2-xatboshida “Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma‘lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganidan keyin ta‘lim tashkilotlarida (bundan oliy ta‘lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi” deb belgilangan.

Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta‘lim muassasalarini magistr darajasidagi oliy ma‘lumotga ega kadrlar bilan butlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalari magistraturalarida o‘qitishni harbiy xizmatchilarning

o'z hisoblaridan to'lov-kontrakt asosida 2021-2022-o'quv yilidan tashkillashtirildi.

Ilmiy va pedagogik kadrlarni tayyorlashning mavjud tizimi oliy harbiy ta'lim muassasasining o'qituvchilar korpusi yangi ijtimoiy buyurtmasini etarlicha hisobga olmaydi, bu tadqiqotni o'tkazishning zarurligini tasdiqlaydi va asosiy aspektlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

o'qituvchilar tomonidan yuqori darajadagi professionallikka erishishda "Oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish" toifasidagi oliy harbiy ta'lim pedagogikasida ishlab chiqilmaganligi;

oliy harbiy ta'lim muassasasi harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini kasbiy tayyorlashning yangi sifatli darajasida amalga oshirishning dolzarb ehtiyoji;

oliy harbiy ta'lim muassasalarining o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasiga bugungi kunda zamonaviy yuqori talablar qo'yilganligi;

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish zarurati mavjudligi.

Muammoni hal qilish ushbu hodisaning mohiyatini alohida ko'rib va uni tashxislash usullarini ishlab chiqishni, namoyon bo'lishni rag'batlantirishni, pedagogik jarayonning to'liq omiliga aylanishni talab qiladi, uning uslubiy asosi falsafiy, psixologik, pedagogik, sotsiologik, tarixiy tushunchalar shaxs, faoliyat, individuallik va kasbiy madaniyat kiradi.

Bundan tashqari, mavzuning dolzarbligini aniqlashtirishda, biz oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik ish stajiga e'tibor berdik. Bugungi kunga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qoshidagi 5 ta oliy harbiy ta'lim muassasalarida 660 o'qituvchilar faoliyat olib bormoqda.

Shulardan asosiysi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmatchilardan iborat bo'lib, ular oliy harbiy ta'lim muassasalari

o'qituvchi lavozimlariga qo'yilgan va pedagogik staji kamligi va yoqligi aniqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ular oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisiga alohida talablar qo'yishni boshladilar. Uning asosiy vazifasi endi bilimlarni saqlash va uzatish emas, balki kursantlarda o'z-o'zini tarbiyalash istagi va bilimlarni ijodiy o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Bugungi kunda nafaqat hozirgi paytda dunyodagi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarga tayanish lozim, balki xalqimizga meros bo'lib qolgan alloma va mutafakkirlarning goyalari biz uchun juda qimmatli ekanligi davr taqozo etmoqda. Chunki, O'zbekiston qadimdan ilmu-ma'rifat markazi, madaniyat o'chog'i bo'lib kelgan. Shu bois, yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning ilmiy-ma'naviy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

O'rta asrlarda yashab ijod qilgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy-ma'naviy merosi, jahon ilm-fani, sivilizatsiya rivojiga qo'shgan bebaho hissasi dunyo olimlari hamda jahon hamjamiyati tomonidan hamisha yuksak e'tirof etiladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim pedagogik zaruriyat hisoblanib, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish hamda natijadorlikni ta'minlash bilan birga ayrim hollarda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunning global va ijtimoiy o'zgarishlari ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarning zaruriyatini keltirib chiqaradi. Zamonaviy talablar asosida o'qituvchilarning ta'lim jarayonida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy oliy harbiy ta'lim tizimini isloh qilish ta'limning maqsadlari va natijalarini belgilab beruvchi va akmeologik yondashuvga asoslangan oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini

rivojlantirishda davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq ta'lim sifatini oshirishning samarali yo'nalishlarini belgilab olish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Mazkur masala mahalliy va global miqyosda nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim pedagogik vazifa sifatida belgilanadi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga akmeologik mexanizmlari amalga oshirish zarurati va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasiga qo'yiladigan talablarni amalga oshirish uchun asos bo'ldi.

Harbiy ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar o'qituvchilarni o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion yondashuvlarini izlashga yo'naltiradi, ularga qo'yiladigan talablar Davlat ta'lim standartida va oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qo'yiladigan malaka talablarida belgilangan. Bu hujjatlar oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchilarida yuqori darajadagi kasbiy malakani shakllantirish zarurligini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy Qurolli Kuchlari oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilaridan ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda o'quv fanlarini o'rganishning nazariy va ilmiy-metodik asoslarini ta'minlashni talab qiladigan mustaqil kasbiy faoliyatga yuqori darajada tayyor bo'lgan kompetensiyasi o'qituvchilarga ehtiyoj sezmoqda.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilarning kompetensiyasini rivojlantirish tizimi tashkiliy, pedagogik va kasbiy-axborot yo'nalishlarida amalga oshirilishi zarur.

Kasbiy kompetensiya oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'qituvchi tomonidan o'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va tajribaning mavjudligi hamda amalga oshirilishini nazarda tutadi. Zamonaviy sharoitda oliy harbiy ta'lim muassasalari yuqori darajadagi professional malakaga ega o'qituvchilarga juda muhtoj.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha mavjud tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'plab yosh o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari past darajada, bu uni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimi yo'qligini ko'rsatadi. Yosh o'qituvchilar o'zlarining o'quv fanlarini o'qitish usullari haqida tasavvurga ega, faqat aniq qo'llash bo'yicha malakaga emaslar, ular ushbu turdagi o'quv ishlarini tashkil etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmaganini inobatga olib, biz dissertatsiya tadqiqotining mavzusini quyidagicha shakllantirdik: "Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi".

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi "Yevropada ta'lim tuzilmalarini sozlash" Yevropa loyihasida o'ttizta umumiy (generic competences) kompetensiyalari ichiga kiritilgan bo'lib, qo'yidagilarni tashkil qiladi: instrumental, kognitiv, uslubiy qobiliyatlar, texnologik va lingvistik ko'nikmalar; tuyg'ularni ifoda etish qobiliyati, tanqid qilish va o'zini tanqid qilish qobiliyati bilan bog'liq shaxslararo kompetensiyalar; ijtimoiy ko'nikmalar, jamoada ishlash qobiliyati; tizim kompetensiyalari butun tizimlarga tegishli ko'nikma va qobiliyatlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar", – deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining "Asosiy tushunchalar" nomli 3-moddasida "malaka – shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi

tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi", – deb yozilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi”ning 6-bo‘limining 29-bandida “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning Vatan taqdiri uchun javobgarlik hissini mustahkamlash, shuningdek, Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibini samarali ma’naviy-ma’rifiy va psixologik tayyorlash bo‘yicha doimiy ishlar”dan tashkil topgan hamda “Qurolli Kuchlarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari” 30-bandida quyidagilardan iborat: “harbiy ta’lim hamda milliy harbiy ilmiy va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini yuksaltirish”.

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonunida “O‘qituvchi turli xil faoliyat turlari bilan professional tarzda shug‘ullanadi, masalan: zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o‘qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini erkin tanlash va ulardan foydalanish; belgilangan tartibda mualliflik dasturlarini va o‘qitish uslubiyotini ishlab chiqish va joriy etish, ijodiy faollik ko‘rsatish, shuningdek, tegishli o‘quv fanlari, kurslari va modullaridan foydalanish; kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish; o‘quv, ilmiy va uslubiy yo‘nalishlardagi davlat axborot-resurs hamda axborot-kutubxona markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish; davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, malaka talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish; ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, tajriba-sinov faoliyatida ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish; ta’lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish” deb belgilangan.

“Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi”ni amalga oshirishning dastlabki natijalari davlat, ilmiy-ta’lim hamjamiyati, jamoat tashkilotlari, biznes, soha ekspertlari o‘rtasidagi o‘zaro

hamkorlik samaradorligini oshirish va xalqaro tajribani o'rganish zarurligini yaqqol ko'rsatilgan.

Milliy oliy harbiy ta'lim tizimini isloh qilish ta'limning maqsadlari va yakuniy natijalarini belgilab beruvchi va akmeologik yondashuvga asoslangan oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini tashkil etishga rahbarlik qiluvchi davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq ta'lim sifatini oshirishning samarali yo'nalishlarini dolzarblashtiradi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi pedagogika fani uchun hech narsani ayamayotgan mamlakat gullab-yashnayotganligini va bunday davlat hamma yaxshi narsalarni – insonlarning kuch g'ayratini ham, moddiy-texnika resurslarini ham o'zida jamlayotganligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Pedagogika fanini malakali kadrlar bilan ta'minlash, xodimlarning professional bilimdonlik darajasini oshirish, ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratish ilmiy jarayonni jadallashtirishning asosiy omilidir.

Demak, bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Xususan, oliy harbiy ta'lim muassasasida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va ularni takomillashtirish zarurati yuqori darajada ekanligi vaqt ko'rsatmoqda.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga akmeologik mexanizmlarni amalga oshirish zarurati va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablarni o'zgartirish uchun asos bo'ldi.

Harbiy ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar o'qituvchilarni o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion yondashuvlarini izlashga yo'naltiradi, ularga qo'yiladigan talablar Davlat ta'lim standartida va oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablarida belgilangan. Bu hujjatlar oliy harbiy ta'lim muassasalari

o'qituvchilarida yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish zarurligini aks ettiradi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha mavjud tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'plab yosh o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari past darajada, bu uni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimi yo'qligini bildiradi.

Yosh o'qituvchilar o'zlarining o'quv fanlarini o'qitish usullari haqida aniq tasavvurga ega emaslar, ular ushbu turdagi o'quv ishlarini tashkil etishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasiri oshirish jarayonida muammolariga qisman e'tibor berilyapti.

Harbiy ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar o'qituvchilarni o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion yondashuvlarini izlashga yo'naltiradi, ularga qo'yiladigan talablar Davlat ta'lim standartida va oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablarida belgilangan. Bu hujjatlar oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchilarida yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish zarurligini aks ettiradi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilarni tayyorlash tizimi tashkiliy, texnologik va axborot yo'nalishlarida amalga oshirilishi zarur.

Kasbiy kompetentsiya oliy harbiy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining pedagogik faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'qituvchi tomonidan o'quv faoliyatida bilim, ko'nikma, malaka va tajribaning mavjudligi hamda amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Zamonaviy sharoitda oliy harbiy ta'lim muassasalari yuqori darajadagi professional malakaga ega o'qituvchilarga juda muhtoj. Bu esa, Qurolli Kuchlar Akademiyasi, Harbiy ta'lim fakultetlari, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari, umumiy o'rta ta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarida

harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflarga yuqori professional salohiyatga ega pedagoglarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yaqin o‘tmishda o‘qituvchi kursantlar uchun deyarli asosiy bilim manbai bo‘lgan va bugungi kunda vaziyat butunlay boshqacha. Endi har bir kursant Internet va boshqa global aloqa texnologiyalari orqali har qanday fan sohasidagi so‘nggi yutuqlar to‘g‘risida ma‘lumot olish imkoniyatiga ega.

O‘qituvchi kursantlarga qanday ma‘lumot topish va olish, asosiy narsani qanday ajratish va ikkinchi darajali narsalarni yo‘q qilishni o‘rgatishi kerak. O‘qituvchining bu roli juda muhimdir, bu nafaqat o‘z intizomini bilishni, balki dominant ta‘lim paradigmasining bilimlarini ustun qilish bilan to‘liq qayta yo‘naltirishni, zamonaviy ko‘p faktorli ijtimoiy-siyosiy, bozor-iqtisodiy, axborot-kommunikatsiya sharoitida oliy harbiy ta‘lim muassasasi kursantining barqaror hayot uchun salohiyati va qobiliyatini anglatuvchi kompetensiyalar majmuasini o‘zlashtirish uchun sharoit yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

O‘qituvchi ta‘lim natijalariga e‘tibor beradi va natijada o‘rganilgan ma‘lumotlarning yig‘indisi emas, balki shaxsning turli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatini ko‘rib chiqadi, bu jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, ayniqsa, qimmatlidir. Vaqt talabiga, asosan, bugungi kunda bir qancha o‘quv fanlar yangi pedagogik paradigmalarga asoslanib, bu erda shaxsiyat tomonidan unga xos bo‘lgan qobiliyatlarni rivojlantirish ta‘lim va tarbiya tizimining markaziga joylashtiriladi.

Zamonaviy pedagogika fanida ta‘limning to‘rtta etakchi paradigmasi mavjud: kognitiv, shaxsga yo‘naltirilgan, funktsionalistik va madaniy. Ushbu paradigmalarda kursantning shaxsini hurmat qilish va uning ijodiy kuchlariga ishonish, shaxsni tanlash, erkinligini berish va unga har tomonlama yordam berish zarurligini anglatadi.

Mazkur paradigmalarning predmeti – bu shaxs haqidagi fanlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ta‘lim jarayonida munosabatlar tizimining paydo bo‘lishi, o‘rnatilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o‘rganish bilan bo‘liq.

Metodologik funktsiyani bajaradigan pedagogika boshqa fanlardan ma‘lumotlarni tanlash uchun zarur bo‘lgan amaliy fan bo‘lib, yosh avlodni o‘qitish yoki tarbiyalashning o‘ziga xos muammosini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogikaning asosiy maqsadi, oxir-oqibat o‘z hayotini mustaqil ravishda ko‘ra oladigan har tomonlama va barkamol shaxsni shakllantirishdir.

Bunday odam o‘z harakatlarida zamonaviy madaniyat darajasida ma‘naviy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslanadi. U atrofdagi dunyo haqida ilmiy qarashlarga ega, uning tabiiy moyilligi va qobiliyatlari rivojlangan, u jismonan sog‘lom va jamiyat manfaati uchun ishlaydi. Zamonaviy ta‘lim tizimidagi o‘qituvchi ushbu vazifalarni kursantlarning turli xil faoliyatini tashkil etish jarayonida hal qiladi.

Buning uchun kompetentsiyaga asoslangan pedagogika va shaxsga yo‘naltirilgan, ko‘p madaniyatli yondashuvlarning yutuqlari an‘anaviy usullar bilan oqilona birgalikda qo‘llaniladi. Ushbu turdagi yondashuvlar zamonaviy pedagogika faniga munosib ravishda mavjud.

Biroq oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining asosiy qismi pedagogik ma‘lumotga ega emas. Shu munosabat bilan o‘qituvchida pedagogik bilimlarning faqat parcha-parcha tushunchasi va ma‘ruza hamda amaliy mashg‘ulotlar orqali ko‘nikmalar shakllanadi. Bundan tashqari, oliy ta‘lim jarayoniga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi, kursantlar tarkibining sifat jihatidan o‘zgarishi, oliy ta‘lim olish motivlarining o‘zgarishi o‘qituvchining kasbiy malakasiga bir qator yangi talablarni qo‘ymoqda:

*Birinchidan,* texnik tayyorgarlikning ahamiyati, axborot texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini bilish, bu sohani doimiy ravishda takomillashtirishga tayyorlik ortib bormoqda.

*Ikkinchidan*, o'qituvchidan amaliy topshiriqlarni bajarish bo'yicha qo'llanmalar, o'quv testlari va boshqa didaktik materiallar ko'rinishida tayyorlash ko'nikmalari talab qilinadi.

*Uchinchidan*, zamonaviy texnik vositalar taqdim etayotgan keng imkoniyatlar o'qituvchidan kursantlarni o'qitishning yangi shakl va usullarini, birinchi navbatda, ma'ruza-taqdimot, simulyatsiya laboratoriya seminari, kompyuter o'yinlari, chat darslari, telekonferensiya va boshqalarni tashkil etishga olib keladi.

Amaliy darajadagi kamchiliklar bir qator salbiy tendentsiyalarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin (oliy harbiy ta'lim muassasalarining innovatsiyalarga tezkor moslashuvi emas; pedagog kadrlarni tanlashning eskirgan tizimi; oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisi faoliyatida pedagogik professionallikni rivojlantirish jarayonlarining roli va ahamiyatini tushunmaslik; oliy harbiy ta'lim muassasasida ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan o'qituvchilarning etarli emasligi va boshq.).

Oliy harbiy ta'limni isloh qilishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan harbiy o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan bog'liq – bu kursantlarni o'qitish sifatini hal qiluvchi darajada belgilaydigan o'quv jarayonidagi asosiy shaxs hisoblanadi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasining maqsadli funktsiyalarini amalga oshirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ushbu muammoni hal qilishga bog'liq. Ushbu pozitsiya ta'limdagi eng muhim jihat akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi ekanligi bilan bog'liq. Ushbu muammo oliy harbiy ta'lim tizimidagi kadrlar siyosatining ayrim holatlari bilan bog'liq, chunki etarli kasbiy fazilatlarga ega bo'lgan o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun ko'p yillar talab etiladi.

So'nggi yillarda o'qituvchilik tajribasi besh yildan kam bo'lgan o'qituvchilar ulushining o'sishi kuzatilmoqda. Ularning hammasi ham oliy

harbiy ta'lim muassasalari kursantlari bilan barcha turdagi o'quv mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli o'tkazishni ta'minlaydigan etarli kasbiy fazilatlarga ega emas.

Shu bilan birga, oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga to'g'ridan-to'g'ri yonaltirish uchun maxsus oliy harbiy ta'lim muassasasining yo'qligi kafedralar va tsikllarda ularni tayyorlashni tashkil etishga majbur qiladi, bu, qoida tariqasida, o'qitilayotgan fanlarning mazmunini o'rganish va o'quv mashg'ulotlarini nazorat qilishdan iborat.

Kafedralar va tsikllarning ayrim pedagogik jamoalarining oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari ko'pincha eklektik, nomuvofiq va ularning maqbulligi nuqtai nazaridan ta'minlanmaydi.

Shubhasiz, barcha bo'limlar va tsikllar oliy harbiy ta'lim muassasasida doimiy ravishda murakkablashib borayotgan pedagogik faoliyatga o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini yuqori darajada rivojlantirishga qodir emas.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va kasbiy shakllantirish muammosini hal qilishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil etishda tizimli yondashuv, kafedralar pedagogik jamoalari va pedagogik faoliyatni shakllantirish tsikllarining nomuvofiqligi natijasida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari har doim ham muvaffaqiyatli tugamaydigan mashaqqatli jarayondan o'tadilar.

Ilmiy va pedagogik kadrlarni tayyorlashning mavjud tizimi oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilariga zarur bo'lgan ehtiyojni etarlicha hisobga olmaydi, bu tadqiqot mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi va zudlik bilan hal qilishni talab qiladigan asosiy muammolarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Ular orasida: o'qituvchilar tomonidan harbiy mutaxassislikda yuqori darajadagi professionallikka erishish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasiga bog'liq.

Oliy harbiy ta‘lim muassasasi o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda Sharq allomalarining boy merosidan foydalanish bu borada ulkan ahamiyatga ega. Sharq allomalari, xususan, Temuriylar davri olimlari, Ibn Sino, Al-Farobiy va boshqa mutafakkirlar oilaviy hayot, tarbiya va ta‘lim bo‘yicha chuqur ilmiy-falsafiy qarashlar qoldirganlar. Sharq allomalari merosining o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi yoshlarni milliy qadriyatlar, ma‘naviy va axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Kaykovus, Nizomulmuluk, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad G‘azzoliy, Ahmad

Yassaviy, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy asarlarida insondagi kasb-hunar fazilati tugʻma emasligi, aks holda fikriy fazilatda mutlaqo kuch va ulugʻlik boʻlmasligi, agar kasb-hunar fazilati tugʻma bolganda, podshohlar ham oʻzlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy bir majburiyat boʻlib qolishi, kasb-korlikda mukammallikka erishish uchun ham fikriy va aqliy fazilat va ham tugʻma qobiliyatlarni birdek ishga solish, taʼlim va tarbiya, oʻrganish orqali malaka hosil qilishi mumkinligi uqtiriladi. Har qanday majmua ikki yoki undan ortiq qismlardan iborat boʻlib, ayni vaqtda oʻzi ham oʻzidan yuqori pogʻonada turgan majmuaga qism boʻlib kiradi. Oʻz navbatida, uning qismlari bir pogʻona pastdagi majmualar hisoblanib, ular ham bir necha qismlardan iborat boʻladi. Bu hodisa texnik majmualarda chekli, tabiiy majmualarda cheksiz boladi.

X.A. Karshiev “Amir Temurning harbiy san’ati: strategiyasi va taktikasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyasiga bagʻishlangan kirish soʻzida shunday deydi: “Bugungi kunda Amir Temurning harbiy strategiyasi va taktikasini yanada tengroq oʻrganish, xalqaro hamjamiyatga yetkazish va buyuk ajdodlarimizning boy harbiy merosini zamonaviy sharoitlarda oʻrganishni targʻib etish, shu bilan birga, atoqli davlat arbobi, sarqarda Amir Temurning harbiy san’at rivojiga qoʻshgan tarixiy hissasini muhokama qilish uchun keng ilmiy va xorijiy temurshunos olimlar Amir Temur hayoti, boy harbiy merosini kam oʻrganilgan jihatlari oʻrganish hamda tizimli tadqiqotlar uchun istiqbolli yoʻnalishlarni belgilab olishdan iborat”.

Sharq mutafakkirlarining merosidan foydalanish orqali yoshlarda oʻzaro hurmat, mehr-oqibat, mas’uliyat va muloqot madaniyatini shakllantirish mumkin. Taʼlim jarayonida mutafakkirlarining asarlaridan foydalanishning ahamiyatini qayd etib, bu jarayonda kursantlarni tarbiyalash, sharq allomalarining merosini taʼlim jarayoniga tatbiq qilish orqali oʻqituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun metodikani takomillashtirish modelini taklif etadi.

Sharq allomalarining merosidan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Temuriylar davri allomalarining merosini ta'lim jarayoniga qo'llash texnologiyalarini temuriylar davri olimlari, xususan, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi buyuk shaxslarning asarlari nafaqat ilmiy, balki ma'naviy tarbiya manbai sifatida ham xizmat qiladi. Bu asarlar yoshlarni ma'naviy kamolotga erishtirishda va hayotga tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

A. Abdullayeva boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish jarayonida Sharq mutafakkirlarining merosidan foydalanishning ahamiyatini ta'kidlaydi. U Sharq allomalarining asarlari bolalarga dastlabki bilim va tarbiya berishda qanday yordam berishini tadqiq etadi. Bu asarlar o'quvchilarning dunyoqarashi, axloqiy va ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va tadqiqotchi ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini hayotga tayyorlashda qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi.

J. Abdullayev Ibn Sino hayoti va ijodi misolida Sharq allomalari merosining ahamiyatini yoritadi va o'quvchilarga nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-madaniy bilimlar berishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ibn Sino nafaqat tibbiyot, balki ijtimoiy fanlar bo'yicha ham chuqur bilimlarga ega bo'lgan. Uning asarlari yoshlarni rivojlantirishda foydali manba bo'lib, unda milliy tarbiya va axloqiy qadriyatlar haqida muhim maslahatlar berilgan.

M. Ganiyeva o'quvchilarni tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanishning ahamiyatini tahlil qiladi. U Sharq allomalarining asarlari bolalarning axloqiy va ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda qanday yordam berishini o'rganadi.

M. Mahmudov ta'kidlaganidek, Temuriylar davri allomalarining merosi ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Ularning asarlari yoshlarni hayotga tayyorlashda o'qituvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ma'naviy kamolotini ta'minlaydi. Chunki, Sharq allomalarining merosidan foydalanishning samaradorligi akmeologik mexanizmlar asosida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishda muhim metodik vosita bo'lib, katta hissa qo'shadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida Sharq allomalarining merosidan foydalanishni kengroq qo'llash zaruriyati mavjud. Bu o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali bo'lib, ularning ma'naviy va axloqiy jihatdan takomillashida, kursantlarni milliy qadriyatlar va an'analarga asoslangan holda milliy ruhda tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Sharq allomalarining merosidan foydalanish o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatdi. Bu natija Sharq allomalarining asarlari va ulardagi ta'lim-tarbiya usullarining zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llanishi mumkinligini va samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, akmeologik mexanizmlar asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish Sharq allomalarining merosidan foydalanishni keng joriy etish zaruriyati aniqlandi. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishida allomalarining merosidan foydalanish samarali hisoblanadi. Bu o'qituvchilarning bilimlarini oshirish, ma'naviy va axloqiy ko'nikmalarini rivojlantirish va muloqot madaniyatini shakllantirishida muhim rol o'ynaydi.

Sharq allomalarining merosidan foydalanishning samaradorligi akmeologik mexanizmlar orqali o'qituvchilarni kasbiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, o'qituvchilarning bilimlarini oshirishda, ma'naviy va axloqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda, qobiliyatini oshirishda va muloqot madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu natijalar Sharq allomalarining merosidan foydalanish ta'lim jarayonida keng joriy etish zaruriyatini ko'rsatadi.

Yuqoridagi natijalar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda allomalarining merosidan foydalanishni keng joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Akmeologik yondashuv yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga asoslangan holda tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Shunday qilib, Sharq

allomalarining merosidan foydalanish orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga katta hissa qo'shish, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar va an'analarga asoslangan akmeologik mexanizmlarni keng joriy etish zarurati mavjud. Ushbu yondashuv ta'lim tizimida samarali bo'lib, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, rivojlantirishning muhimligini ko'rsatadi, yoshlarni ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlantirishda, ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotida katta ahamiyatga ega.

Sharq mutafakkirlari merosi vositasida o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarining samaradorligini asoslash imkonini berib, tanlangan didaktik vositalarning tizimli tarzda taqdim etilishi va o'quv-tarbiya jarayoni mazmuniga singdirilishi zarurligini ko'rsatdi.

Ishlab chiqilgan mezonlar va texnologiyalar o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish natijasida o'quvchilar bilan o'qituvchi orasida o'zaro hamkorlik va hurmatga asoslangan do'stona munosabatlar, muloqot, ishchanlik ruhining ustuvor bo'lishiga erishish imkonini berishini aniqlashga xizmat qiladi.

Akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni samarali qo'llash mazkur dissertatsiyaning ilmiy-nazariy asoslari bo'lib xizmat qildi.

Pedagogika fanida kompetensiyalarning barcha turlari sinchkovlik bilan o'rganilgan: kasbiy, madaniy, innovatsion, transkultural, kommunikativ, ijtimoiy, ijodiy, boshqaruv, grafik kompetensiya, milliy o'zlikni anglashsh, kasbiy aloqa, og'zaki kasbiy kompetensiya, multimedia bilan ishlash kompetensiyasi va boshqalar. Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish biz uchun alohida qiziqish uyg'otmoqda.

Oliy ta'limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida nafaqat professional (qattiq ko'nikmalar (hard skills) – bu tekshirilishi mumkin bo'lgan aniq

ko'nikmalar va bilimlar; ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar talab qilinadiganligi sababli o'quv jarayonida shakllanadi), balki professional, ya'ni moslashuvchan ko'nikmalarga (yumshoq ko'nikmalar (soft skills) – bu shaxsning boshqa odamlar bilan muloqot qilish va turli xil hayotiy vaziyatlarga moslashish qobiliyati, ko'nikmalari va o'ziga xos xususiyatlari) turli kasb egalari ega bo'lgan universal sifatlar. Masalan, tanqidiy fikrlash qobiliyati, tashkiliy qobiliyat, empatiya, harakatchanlik, tez moslashish, fikrlashning moslashuvchanligi va ijodkorligi, jamoada ishlash qobiliyati va boshqalar.

Globalashuv sharoitida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Har doim malakali mutaxassislar jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini ta'minlashda etakchi o'rinni egallagan. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi “kompetentsiya” darajasi tushunchasida o'z ifodasini topadi.

O'qituvchining kasbiy malakasi uning amaliy faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Har bir o'qituvchi uchun kasbiy faoliyatni tashkil etishda kompetentsiya fazilatlarini namoyon etish zarur.

Akmeologik mexanizmlarni amalga oshirishning natijasi o'qituvchiga tegishli bo'lgan quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi: kasbiy va qiymat yo'nalishlari, pedagogik faoliyatning qadriyatlarini: kursantni erkin, uyg'un shaxs sifatida tarbiyalash, uning kognitiv qiziqishlarini rag'batlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini anglashga bo'lgan ehtiyoj va istakni yangilash; pedagogik faoliyatning shaxsiy qadriyatlarini: maqsadlar (kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirish va o'zingiz yoqtirgan ish bilan shug'ullanish qobiliyati, kasbiy o'zini takomillashtirish) va vositalar (pedagogik faoliyatning ijodiy tabiati, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish); kasbiy maqsadlarni belgilash (pedagogik maqsadlarni anglash, kasbiy faoliyatning o'z maqsadlarini tanlash va kasbiy o'zini takomillashtirish, kasbiy faoliyat va o'z o'zini takomillashtirish, maqsadlari ierarxiasini anglash), kasbiy motivatsiya

(pedagogik faoliyat jarayoni va mazmuniga qiziqish (o'quv faoliyati, pedagogik aloqa, bilimlar), pedagogik faoliyat natijasining ahamiyatini anglash, yuqori sifatli ta'lim olish zarurati), kasbiy muvaffaqiyatga intilish (kasbiy mahoratga erishish motivatsiyasi), o'z-o'zini rivojlantirish istagi, ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlik, aks ettirish va o'zini aks ettirish tendentsiyasi va qobiliyati.

### **1.2-§. Akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari**

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, ulg'ayib kelayotgan avlodning ongi, tafakkurini to'g'ri shakllantirish, yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Inson qadrini yuksaltirish va yoshlarga sifatli ta'limni berishdagi amaliy ishlar zamon bilan hamnafas tashkil etilmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev 2018-yil 24-oktyabrda oliy ta'limni yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalari bo'yicha yig'ilishda shunday dedi: "iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida oliy ta'lim tizimi rivojlanishning "lokomotivi" bo'lish o'rniga, zamon bilan hamnafas emasligi achinarli. Achchiq haqiqat shundaki, bizda mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlarga javob beradigan, yoshlarni kasblarga o'rgatadigan, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantiradigan tizim yo'q". Bu jarayon oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi muammolarni ham qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 13-yanvar kuni bo'lib o'tgan xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida harbiy qo'shinlar oldiga ma'naviy-ma'rifiy va madaniy ishlarni rivojlantirish bo'yicha bir qator topshiriqlar qo'ygan edi. Mudofaa vazirligi, Madaniyat va turizm vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va boshqa tegishli tashkilotlar

hamkorligida o'tkazilgan "Vatan manzumasi" nomli adabiy-ma'rifiy kechalar jamoatchilik o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi. Tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylash, el-yurt farovonligi uchun safarbarlik, mardlik va jasorat singari ezgu fazilatlar aks ettirilgan mazkur adabiy-ma'rifiy tadbirlarda turli soha vakillari va harbiy xizmatchilar bilan bir qatorda Vatan osoyishtaligi uchun xizmatga o'tlangan yosh kursantlarlar ham ishtirok etmoqda. Mazkur jarayonda odam tinchlik ulug' ne'mat ekanini, u o'z-o'zidan ta'minlanmasligini, osoyishtalikni saqlash uchun shu yurtning har bir farzandi birlashishi, ahil-inoq, sadoqatli bo'lishi, Vatanni onani sevganidek sevishi, onani himoya qilganidek himoya qilishi lozim va shartligini yana bir bor teran anglashi shubhasiz.

Yurtimiz tinchligini saqlash nafaqat harbiylar, balki har bir vatandoshimizning muqaddas burchi ekani, agar barchamiz bir tanu bir jon bo'lsak, osoyishtaligimizda hech kim rahna sololmasligini chuqurroq his qiladi hamda osoyishta yurtimizni asrab-avaylashga, ajdodlar iyodi bilan faxrlanishga undaydi.

Mamlakatimizdagi tinch va osoyishta, xavf-xatardan holi hayot, ijtimoiy barqarorlik, hamjihatlik, to'kislik va farovonlik, oqibat, o'zaro mehr va muruvvat muhiti oliy qadriyat ekani hayotimizda yana bir qarra o'z ifodasini topmoqda.

Bugungi avlod qalbida sadoqat tuyg'usini yanada yuksaltirish, uning uchun kerak bo'lsa jon berishga shay turish, ota makon, ona yurtni ardoqlash va ulug'lashga, uni ko'z qorachigidek asrashga o'rgatish zarur. Hozirgi globallashuv davrida yoshlar ongu shuurida yuzaga kelayotgan o'ziga xos ijtimoiy-ma'naviy, ruhiy o'zgarishlar oliy ta'lim tizimidagi ishlarni zamonaviylik, muhimlik va samaradorlik, ta'sirchanlik nuqtai nazaridan to'liq qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Yoshlarning bilim va saviyasini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, iqtidorli kursantlarni faol qo'llab-qo'vvatlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarida bir qator tanlovlar muntazam o'tkazilib kelmoqda. Bu ishlarning

barchasi shu paytga qadar shakllantirilgan mavjud tizim va mexanizmlar doirasida tashkil etilmoqda. Ular ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarning samaradorligi, ta'sirchanligi va zamonaviyligi jihatidan o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot asrida mamlakatimizdagi demokratik islohotlarga ham-ohang so'z erkinligi tufayli ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni keskin faollashdi.

Bunday pallada yoshlarning ta'lim-tarbiyasi borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish ehtiyoji paydo bo'ldi. Bunday murakkab vaziyatda ishlash, natijaga erishish uchun, eng avvalo, sharoit va yuqori malakali pedagog kadrlar kerak.

Ko'pincha malakaning pedagogik tarkibiy qismi ilmiy jihatdan ikkinchi darajali hisoblanadi. Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining aksariyati maxsus pedagogik ma'lumotga ega emaslar, bu ularga ushbu sohada malakali va takomillashtirishga imkon bermaydi, shuningdek, o'qitish muammolarini o'qitish metodologiyasiga tayanmasdan intuitiv ravishda hal qilishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ular oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisiga alohida talablar qo'yishni boshladilar. Uning asosiy vazifasi endi bilimlarni saqlash va uzatish emas, balki kursantlarda o'z-o'zini tarbiyalash istagi va bilimlarni ijodiy o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Ta'limda kompetensiyaga asoslangan mexanizmlar faqat o'qituvchining o'zi zarur kompetensiyalarga ega bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin.

O'qituvchilik faoliyati – bu ta'lim mazmunini o'zlashtirish va shaxsni shakllantirishga rahbarlik qilish. U etakchi hisoblanadi, chunki boshqalar u bilan birlashadi va unda namoyon bo'ladi. Nafaqat oliy ta'limning, balki, umuman, mamlakatning taqdiri o'qituvchilarning harakatlarining natijalariga bog'liq.

Zamonaviy oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisi ta'lim va tarbiya, kursantlarning salohiyatini oshirish, faol ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib boradi, o'quv jarayonini boshqarish va boshqa turdagi tashkiliy ishlarda qatnashadi.

O'qituvchining kasbiy malakasi haqida gapirganda, ular, birinchi navbatda, uning mutaxassislik bo'yicha bilimlarini anglatadi, ammo shu bilan birga ular shaxsiyat madaniyati, atrofdagi dunyoni tushunish qobiliyati bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Ta'lim – bu shaxsning hayoti davomida amalga oshiriladigan ma'rifiy va madaniy jarayon. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida bu auditoriya va auditoriya tashqari mashg'ulotlarda sodir bo'ladi, bu erda o'qituvchi bunday shaxsning namunasi sifatida asosiy rol o'ynaydi.

O'qituvchi modelining asosi uning pedagogik qobiliyatidir. Ularning amalga oshirilishi va rivojlanishi kasbiy faoliyatda ro'y beradi va pedagogik tajriba texnologiyani takomillashtirishga, belgilangan maqsadlarga erishishning yanada samarali usullarini izlashga imkon beradi.

Ko'pgina o'qituvchilarning kasbiy fazilatlari, ma'naviy va axloqiy jihatlarni, kursantlarga bo'lgan muhabbatni, o'quv jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini, pedagogik faoliyatga e'tiborni, ma'lum darajadagi kasbiy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy sharoitda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu bilim darajasining doimiy o'sishiga va o'zini takomillashtirishga hissa qo'shadigan, individual kasbiy fazilatlarni shakllantirishga va kasbiy tajribani takomillashtirishga olib keladigan dinamik jarayonni anglatadi.

O'qituvchining kasbiy kompetentsiya darajasini mutaxassislik bo'yicha fan asoslarini chuqur bilish, pedagogik xushmuomalalik, pedagogik faoliyatni tashkil etishga qiziqishning namoyon bo'lishi, o'ziga bo'lgan ishonch, tashkilotchilik, xushmuomalalik, kursantlarning o'quv natijalariga erishishga

qiziqishi, obyektivlik, pedagogik faoliyat natijalari uchun javobgarlik kabi mezonlar asosida baholash mumkin.

Kasbiy faoliyatga mas'uliyatli yondashuv ma'lum vaqt davomida pedagogik ishlarni rejalashtirish, ish turlarini to'g'ri taqsimlash, intizom va tartibni anglatadi. Bu o'qituvchilarga, yaxshi tashkilotchilarga xosdir. Kasbiy faoliyatni tashkil etishda yuqori ko'rsatkichlarga erishgan o'qituvchi har doim vaqtni oqilona taqsimlaydi, vaqt xarajatlarini oldindan belgilaydi va rejalashtirilgan ish rejasini muvofiqlashtiradi. O'qituvchi faoliyatning maqsadini aniq belgilashi, tashqi nazorat va o'zini o'zi boshqarishga e'tibor qaratishi va maqsadga erishish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Qiyin vaziyatlarda o'qituvchi muammoni ijobiy hal qilish uchun hissiy barqarorlikni namoyon qilishi, faol bo'lishi kerak. Shuning uchun, kutilgan natijalarga erishish uchun ba'zida rejaga tuzatishlar kiritish kerak bo'ladi, bu esa, vazifalarni hal qilish usullarini tezda o'zgartirishga olib keladi.

O'qituvchining kasbiy faoliyatiga mas'uliyatli yondashuv quyidagi mezonlarga va ularga mos keladigan ko'rsatkichlarga muvofiq baholanadi: barcha rejalashtirilgan maqsadlarga erishish uchun o'z faoliyatini va kursantlarning faoliyatini to'g'ri tashkil etish; pedagogik faoliyat hajmini oqilona aniqlash; pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va xatolarga konstruktiv ta'sir ko'rsatish, vaziyatlarga qarab rejaga zarur tuzatishlar kiritish aqliy barqarorlikning namoyon bo'lishi eng yuqori hissiy stress holatida.

Ushbu mezonlar kasbiy faoliyatning umumiy mohiyatiga asoslanadi. Shu bilan birga, mutaxassislik yo'nalishini hisobga olgan holda va pedagogik faoliyat turlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mezonlarni aniqlashda ijodiy yondashuv zarur.

Umumiy madaniyat darajasi o'qituvchining hayotiy qarashlarini, qadriyat yondashuvlarini, aloqa madaniyati majmuasini va shaxslararo munosabatlar madaniyatini o'z ichiga oladi va ularning umuminsoniy qadriyatlar, olijanoblik,

fazilat, go‘zallik va erkinlikka sodiqligi asosida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining umumiy madaniyati har bir harakatda, har bir so‘zda o‘z ifodasini topadi. O‘qituvchi shaxsining barcha tomonlarini baholashda gumanistik fazilatlar, ijtimoiy subyektlarga xizmat ko‘rsatishning axloqiy tamoyillari etakchi o‘rinni egallaydi. Ular, o‘z navbatida, ta‘lim oluvchilarning shaxsini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning mazmuni bilan to‘liq bog‘liqdir.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini aniqlash mezonlari va tegishli ko‘rsatkichlar: mustaqil, erkin, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyati, keng dunyoqarashga ega bo‘lish, turli mavzularda erkin suhbatlar o‘tkazish qobiliyati, o‘qituvchining xulq-atvori, tashqi ko‘rinishi, sodir bo‘layotgan ijtimoiy o‘zgarishlar, iqtisodiy o‘zgarishlar va madaniy voqealar to‘g‘risida xabardorlik, pedagogik etika va kommunikativlik, fikrning ravshanligi va to‘g‘riligi, o‘z fikrlarini bemaolol ifoda etish qobiliyati, nutq madaniyatining yuqori darajasi va boshqalar.

Ushbu mezonlar va ko‘rsatkichlar, shuningdek, kasbiy faoliyatning umumiy qoidalariga asoslanadi, ammo ularning yo‘nalishlari va pedagogik faoliyat turlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlashga ijodiy yondashishni o‘z ichiga oladi.

Oliy harbiy ta‘lim muassasasi o‘qituvchisi ishining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u doimiy ravishda ilmiy ish bilan shug‘ullanishi kerak, muvaffaqiyat ilmiy daraja va unvon bilan tasdiqlanadi. Uning samarali faoliyatining tarkibiy qismlari pedagogik qobiliyat va ko‘nikmalarning mavjudligi, yuqori darajadagi bilim, ritorik va axborot madaniyati, ilmiy faoliyatga qiziqish, tashkiliy ko‘nikmalar, muloqot qobiliyati, axloqiy fazilatlar, samaradorlik, shaxsiy jozibadorlik.

O‘qituvchining vazifasi kursantda moslashuvchan fikrlashni shakllantirish, o‘zini takomillashtirish va tez o‘zgaruvchan yashash sharoitlariga moslashish qobiliyatini rivojlantirishdir. Buning uchun u turli vaziyatlarda

o'rganilgan faoliyat usullaridan foydalanish mexanizmlari to'g'risida bilim va umumlashtirilgan tushunchalarni uzatish jarayonida kursantlarni faollashtirishga qaratilgan tegishli usullarni o'zlashtirishi kerak.

Zamonaviy talablarga javob berish istagi va ta'lim tizimini rivojlantirishda texnologiyaning rolini tushunish, ularga egalik qilish o'qituvchi madaniyatining asosiy belgilari hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ta'lim sohasidagi muhim tarkibiy qismlardan biri bu nafaqat ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni rivojlantirish uchun asos yaratadigan, balki o'qituvchining kasbiy o'sishi, uning ijodiy izlanishlari yo'nalishlarini belgilaydigan, kursantlarning shaxsiy o'sishiga hissa qo'shadigan pedagogik faoliyatdir. Shuning uchun u o'qituvchilar va o'quv-tadqiqot kursantlarining ilmiy-uslubiy ishlari bilan uzviy bog'liqdir.

Innovatsiyalarni ta'lim mazmuni, o'qitish sifatini nazorat qilish usullari va shakllaridagi o'zgarishlar deb ham tushunish mumkin. Ularni amalga oshirish ko'lami bo'yicha emas, balki aniq natijalar bo'yicha baholash kerak.

Zamonaviy sharoitda o'qituvchidan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv jarayonida bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatini modellashtirish, kursantlarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, muammoli o'qitishning faol usullarini o'zlashtirish qobiliyati talab etiladi.

Ta'lim samaradorligining muhim sharti – bu muvaffaqiyat to'g'ridan-to'g'ri ijodiy va kognitiv faoliyatning tabiati va rag'batlantirilishiga bog'liq bo'lgan o'quv vazifalarini belgilash. Ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlarga muvofiq, o'quv jarayonining tabiati innovatsion bo'lishi kerak.

Bunday ko'nikmalarni rivojlantirishda o'qitish metodikasi va darajasi, o'qitishning eng yangi samarali usullaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasi o'qituvchisi, birinchi navbatda, o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur shart bo'lgan o'ziga xos fazilatlar va kompetentsiyalarga ega bo'lgan shaxsdir.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda kursantlarda huquqbuzarliklar profilaktikasining samarali tizimini joriy etish maqsadida aksariyat oliy ta'lim muassasalarida shartnoma asosida profilaktika inspektori lavozimi joriy etildi.

Xorijdagi tajribaga ko'ra, har bir kursantning o'qish davridagi ijtimoiy faolligi baholab boriladi va bu birituvchining portfoliosida ham o'z aksini topadi.

Eng muhimi, oliy harbiy ta'lim muassasasi bitiruvchining kasbiy faolliga aks etgan portfoliosi ish beruvchilar tomonidan ham inobatga olinadi va qadrlanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarini joriy etish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

D. Xalmatova tomonidan ta'kidlanganidek, ijtimoiy-gumanitar fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

A. Feruzovich esa, pedagoglarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlar va pedagogik sharoitlarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

K. Xummatova kredit-modul tizimida differentsial yondashuvni joriy etishning pedagogik masalalariga e'tibor qaratadi. Uning tadqiqotlari kredit-modul tizimi orqali talabalarning shaxsiy ehtiyojlariga mos ta'lim olish imkoniyatlarini o'rganadi va bu yondashuvning ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi. Differentsial yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning ijtimoiy kompetentliklarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

N.B. Xojiyeva esa, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy kompetentliklarini rivojlantirish metodikasini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishda eng muhim yondashuvlarni ko'rsatib bergan.

D. Xalmatova ta'lim jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishning ahamiyatini chuqur tahlil qilib,

bu metodikaning talabalarning ijtimoiy kompetentliklarini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganan. Uning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish talabalarning ijtimoiy faoliyatini oshiradi va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

F.F. Abbosov esa, pedagoglarni tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvlar va pedagogik sharoitlarni o'rganadi. Uning tadqiqotlari pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda metodlarni qo'llashning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, X. Yigitaliyev ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashdagi yondashuvlarni tadqiq qilgan. Uning tadqiqotlari natijalari ko'rsatadiki, yangi texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llash bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy kompetentliklarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bu usullar talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

M. Payazov, H. Umarova va A. Abdulaziz uzluksiz ta'lim tizimida Bluetooth texnologiyalaridan foydalanishning o'rnini tahlil qiladilar. Ularning tadqiqotlari yangi texnologiyalarning uzluksiz o'rganish jarayonini yanada samarali amalga oshirishda va o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda qanday rol o'ynashini ko'rsatadi. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, akmeologik yondashuv asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zaruriyati mavjud. Shu bilan birga, bu yondashuvlar o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga, ularning ijtimoiy munosabatlar tizimida muvaffaqiyatli moslashuviga yo'naltirilgan.

Oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchilar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi yoki o'zgartirishi mumkin. Akmeologik mexanizmlarning asosiy uslubiy tamoyili – o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish

tizimining ta'lim, fan, texnologiyada sodir bo'ladigan o'zgarishlarga muvofiqligi. Mazkur tamoyil asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tizimi quyidagi tamoyillar bilan boq'liq: ta'limning tizimliliigi, ilmiyligi, ketma-ketligi, uzluksizligi, izchilligi, ko'rgazmaliligi, maqsadga muvofiqligi, amaliyotga yonaltirilganligi, faolligi, ta'lim mazmuni yangilanganligi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisi faoliyatining asosiy yo'nalishlari uning ko'p funksiyaliligini aks ettiradi: o'quv jarayonini tashkil etish, uslubiy ish va shaxsiy malaka oshirish, ilmiy ish, o'qituvchining o'quv ishlari, kafedra va tsikldagi ishlar, oliy harbiy ta'lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish va boshqa tashkiliy faoliyatlar ham kiradi.

Bugungi kunda oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasiga qo'yiladigan talablar ularning "lifelong learning" deb nomlangan uzluksiz ta'limning eng muhim printsipini amalga oshirish qobiliyatini aks ettiradi. Binobarin, oliy harbiy ta'lim muassasasining o'quv jarayoni axborot o'qitish modellari va moddiy resurslarning turlarini ko'paytirishga, shuningdek, ularni taktik va orqa qo'llab-quvvatlash fanlarini o'rganish jarayonida jang va operatsiyalarda boshqarishga qodir bo'lgan yuqori texnologiyali o'quv-moddiy baza bilan ta'minlanishi kerak. Albatta, ushbu modellardan foydalangan holda o'qitishdan oldin maxsus fanlarni o'rganish jarayonida o'quv majmualari yordamida amaliy va guruh mashg'ulotlarida harbiy-maxsus texnika namunalari qo'llash usullarini o'rganish kerak. Bunday holda, o'rganilayotgan fanning o'ziga xos xususiyatlariga, olib borilayotgan mashg'ulotlar turlariga va hal qilinadigan o'quv vazifalariga qarab: o'quv va axborot materiallari to'plami (o'quv materiallari va dasturiy ta'minot) o'z ichiga olgan o'quv-mashg'ulot majmualarining tipik tuzilishi va tarkibi taqdim etilishi kerak; sport anjomlari majmuasi; o'quv uskunalari majmuasi; baholash va hisobga olish majmuasi tayyorgarlik natijalari.

Zamonaviy sharoitda ilmiy taraqqiyotning o'sishi oliy harbiy ta'lim muassasalarining doimiy takomillashtirilishi va yangilanishi bilan tavsiflanganda, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetensiyalari darajasini rivojlantirish muammosi diqqat markazida bo'ladi.

Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish kasbiy bilimlarni tizimlashtirish va harbiy o'qituvchining kasbiy faoliyatining umumiy didaktik tuzilishi asosida, ham kasbiy tayyorgarlik jarayonida, ham kasbiy ta'lim tizimida har tomonlama amalga oshirilishi kerak. Shuni yodda tutish kerakki, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga o'qituvchining kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun o'quv mikro va makro o'quv qo'llanmalarini qurish bilan o'quv dasturi va o'quv materiallari asosida o'zi olib boradigan o'quv intizomining mazmuni asosida individual ravishda yondashish kerak.

Tayyorgarlik jarayonida, o'quv fanining asosiy qoidalarini biladigan va qo'llaydigan va zarur fanlararo aloqalarni amalga oshiradigan asosiy o'quv dasturining fanlar majmuasida o'z intizomining o'rnini ko'ra oladigan o'qituvchi yuqori kasbiy darajaga ega ekanligidan kelib chiqish kerak. Shu bilan birga, o'qituvchining o'qitishning mazmuni, shakllari, usullari va uslubiy xususiyatlarini o'rganishga, shuningdek, oliy harbiy kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartida belgilangan zamonaviy o'quv texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Kasbiy kompetentsiya – bu o'qituvchining jamiyatda faol ishtirok etishi, ijtimoiy muhitga moslashishi va o'z kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning majmui.

O'qituvchilarda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, asosan, ta'limning sifatiga yordam berishi bilan birga o'zaro insoniylik muhitining qaror topishiga yaxshi xizmat qiladi.

Shuningdek, kursantlarga ta'lim berishda, o'quv amaliyotida ularni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda, jamoaviy munosabatlarni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'z kursantlarining turmush tarzi va ularning manfaatlarini qo'llash bo'yicha tashqi munosabatlariga umidvorlik bag'ishlaydi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining o'quv-mashq kompleksini ta'lim jarayonida qo'llashga tayyorligi darajasini tahlil qilish bu borada muayyan muammolarni aniqladi, ularni ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

1-guruh: amaliy va taktik vaziyatning o'quv vaziyatlarini tayyorlash va o'qitish jarayonida modellashtirish o'qituvchilarining qobiliyatlari yo'qligi, aniq lavozimlarda talabalar harakatlarining stsenariylari bo'linmalarining haqiqiy jangovar harakatlariga (tezkor va jangovar qo'llab-quvvatlash) imkon qadar yaqin bo'lganligi sababli yuzaga keladigan mazmunli muammolar;

2-guruh: o'qituvchilarning zamonaviy o'quv texnologiyalaridan (kompyuter-sport texnologiyalari, axborot modellari va o'quv-mashg'ulot majmualari) foydalangan holda turli xil mashg'ulotlarni o'tkazishga tayyorligining past darajasi bilan belgilanadigan texnologik muammolar. Shu munosabat bilan o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasi jarayonida zamonaviy o'quv-mashq komplekslaridan foydalanishni tashkil etishni takomillashtirish quyidagi tartibda amalga oshirilishi kerak: dastlab o'qitishning mavjud shakllari va usullari o'zlashtiriladi va takomillashtiriladi hamda shundan keyingina ularni keng joriy etishga o'tish mumkin.

Ushbu yondashuvni amaliy amalga oshirishning birinchi bosqichi o'qituvchilarning texnologik tayyorgarligi darajasini oshirish bo'lishi kerak. Texnologik ko'nikmalar ta'lim muammosini shakllantirish va uni vazifalar tizimiga aylantirish, shuningdek, butun pedagogik tizimning holati to'g'risidagi ma'lumotlarni samarali qayta ishlash va tahlil qilish, natijalarni obyektivlashtirish hamda o'zgarishlarning shakllanish dinamikasini kuzatish,

o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish ko'nikmalaridan iborat.

Shu bilan birga, o'qituvchi kursantlarning ta'lim faoliyatini tashkil etish borasidagi bilimlari milliy va xorijiy harbiy fanlarni ilmiy o'rganish yutuqlari va natijalariga, shuningdek, turli xil operatsion sohalarda qurolli to'qnashuvlarda qo'shin guruhlarini qo'llash bo'yicha o'qitish, tahlil qilish amaliyotiga asoslangan holda asosiy ahamiyatga ega. Bu, oxir-oqibat, fan, amaliyotning integratsiyasini va uning harbiy ta'lim sifatiga ta'sirini tavsiflaydi, eskirganlarni yangilashni va kursantlarning yangi bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini to'ldirishni ta'minlaydi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisining pedagogik faoliyatida uning kasbiy kompetensiyasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va o'quv dasturida belgilangan ta'lim oluvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda aniq natijaga erishish qobiliyatini aks ettiradi (o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalari, axborot modellari va o'quv komplekslaridan foydalanish orqali). Bunday holda, o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalari, axborot modellari va o'quv majmualarini qo'llash sohasidagi o'qituvchilarning kasbiy malakasini belgilaydigan asosiy malaka talablari quyidagicha shakllantirilishi mumkin: ilmiy-tadqiqot, psixologik, uslubiy, baholash va diagnostika.

O'qituvchining kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga akmeologik mexanizmlarning mazmuni kiradi. Akmeologik mexanizmlarning mavzusi keng. Bugungi kunda u o'qituvchining kasbiy mahorat darajasi, shuningdek, o'qituvchi shaxsining kasbiy etukligi cho'qqilariga erishish shartlari va qonuniyatlarini birinchi o'ringa olib chiqdi. Shu bilan birga, uning fan sohasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) pedagogik muammolarni hal qilish bilan bog'liq o'qituvchining individual va jamoaviy faoliyati cho'qqilariga erishish qonuniyatlari va mexanizmlari; b) o'qituvchining bosqichma-bosqich shakllanish jarayonlarini o'rganish; v) pedagogik faoliyatdagi kasbiy

yutuqlarning motivlari; d) pedagogika sohasidagi professionallikka erishish traektoriyalari.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha talablar o'qituvchi ega bo'lishi kerak bo'lgan ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarning ko'rsatkichlari tizimi shaklida tavsiflanishi mumkin:

Oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisining o'quv mashg'ulot majmualarini qo'llash uchun zarur bo'lgan va qobiliyatini tavsiflovchi ilmiy-tadqiqot fazilatlarini: harbiy kadrlar tayyorlash uchun tubdan yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish; o'quv texnologiyalari samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlarini aniqlash; o'quv-mashg'ulot majmualari yordamida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish; o'quv texnikasi samaradorligini oshirish; ilmiy pedagogik tadqiqotlar natijalarini o'rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish, zamonaviy qurolli to'qnashuvlarda qo'shinlardan foydalanish amaliyoti, operativ, jangovar tayyorgarlik va jangovar navbatchilik.

Qobiliyatni tavsiflovchi shaxsiy fazilatlar majmuasi: o'qituvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish; shaxsiy kognitiv faollikni rag'batlantirish; kursantlarning ta'lim sifatini yaxshilashni rag'batlantiradigan tarbiyaviy ta'sirning empirik usullaridan foydalanish; harbiy kadrlar tayyorlash jarayonini amalga oshirish uchun ijobiy vaziyatni shakllantirish; oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining barqarorligini rivojlantirishga yordam beradigan o'ziga xos vazifalarni ishlab chiqish.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi uslubiy fazilatlar majmuasi: o'quv jarayonida zamonaviy o'quv-mashg'ulot majmualaridan foydalanish samaradorligini baholash va shu asosda kursantlarni tayyorlashning zarur usullarini ishlab chiqish; o'quv-mashg'ulot majmualaridan foydalanish; o'quv muammolarini hal qilish fazilatini oshirishga yordam beradigan eng maqbul o'quv sharoitlarini yaratish; talab qilinadigan o'quv natijalariga muvofiq o'qituvchilarning kasbiy jarayonini modellashtirish; o'quv jarayonida o'quv-mashg'ulot majmualaridan foydalanishning samarali

tavsiflarini ishlab chiqish; o'quv-mashg'ulot majmualaridan foydalangan holda o'quv-taktik muammolarini hal qilish jarayonini boshqarish; kursantlarning ta'lim faoliyatini rag'batlantiradigan individual pedagogik usullardan foydalanish; o'quv-mashg'ulot majmualaridan foydalangan holda yagona va kompleks o'quv mashg'ulotlari stsenariylarini ishlab chiqish; o'quv-mashg'ulot majmualaridan foydalangan holda ixtisoslashtirilgan o'qitish usullarini ishlab chiqish va o'quv-mashq komplekslari; ilmiy tadqiqotlar natijalari va qo'shinlar amaliyotini o'quv ma'lumoti sifatida o'quv jarayoniga integratsiya qilish.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasining ekspert fazilatlarini to'plami: o'quv-mashg'ulot majmualaridan foydalangan holda turli xil o'quv tizimlarining samaradorligini aniqlashga imkon beradigan baholash usullarini qo'llash; zamonaviy o'quv-mashg'ulot majmualaridan foydalanish orqali o'quv jarayonining samaradorligini baholash; o'quv-mashg'ulot majmualaridan foydalangan holda darslarni rejalashtirishda ularni keyinchalik hisobga olish maqsadida kursantlarning individual xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan o'quv jarayonini farqlash; kursantlarning jamoaviy fazilatlarini, faolligini oshirishga, mustaqillikni, raqobatbardoshlikni va keyingi kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan boshqa ijobiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan o'quv-mashg'ulot majmualaridan foydalangan holda maxsus o'qitish usullarini ishlab chiqish; o'quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan o'quv-mashg'ulot majmualarini qo'llashning pedagogik usullaridan foydalanish.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini baholash fazilatlarini majmuasi: kursantlarning ta'lim sifatini baholashning turli usullaridan foydalanish (yozma: test, nazorat, raqamli diktant; og'zaki: motivatsiya, izoh, taqqoslash); o'quv komplekslaridan foydalangan holda samarali joriy, oraliq va yakuniy nazoratni tashkil etish.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini diagnostika sifatlarini to'plami: baholash funktsiyalari bilan bir qatorda o'qitish vositasi bo'lgan test vazifalarini ishlab chiqish; o'quv jarayonida o'quv-mashg'ulot majmualaridan foydalangan

holda o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida kursantlar o'zlashtirgan ma'lumotlar miqdorini, shuningdek, kasbiy va ixtisoslashtirilgan kompetensiyalarni o'zlashtirish darajasini aniqlashga imkon beradigan usullardan foydalanish. O'quv mashg'ulotlarida o'quv majmuasidan foydalanish masalalarida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarni samarali rivojlantirishga quyidagi asosiy yo'nalishlarni amalga oshirish ham yordam berishi mumkin: ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida o'quv majmualariga taktik, texnik va didaktik talablarni ishlab chiqish uchun o'qituvchilarni jalb qilish.

Oliy harbiy ta'lim muassasasida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va undan foydalanish bo'yicha tashkiliy-metodik tadbirlarni komplekslashtirish va tizimlashtirish, kafedra va tsikllarda fanlarning o'quv-metodik materiallarini har yili takomillashtirish va qayta ishlash. Bu oliy harbiy ta'lim muassasalararo ilmiy-amaliy konferentsiyalar va vebinarlar doirasida ham, oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda o'qituvchilar tomonidan pedagogik amaliyot o'tash jarayonida ham sodir bo'lishi mumkin.

Zamonaviy sharoitda jangovar harakatlarni tayyorlash va o'tkazish shakllari, usullari, o'z vaqtida qo'shinlar va qurollarni boshqarish, harbiy ta'lim sifatini harbiy fan va harbiy amaliyotlar bilan integratsiyalashuvi asosida oshirish orqali samarali foydalanish mumkin.

O'quv jarayonida zamonaviy o'quv mashg'ulot majmuasidan foydalanish masalalarida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik jihatlariga pedagogik faoliyatning tuzilishini va ularning talab qilinadigan kompetensiyalarni rivojlantirish qobiliyatini aks ettiruvchi oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining zamonaviy kasbiy sifatlari ko'rsatkichlari tizimini amalga oshirish kiradi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining rivojlanish darajasi sezilarli darajada oshdi, bu nafaqat oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining ilmiy salohiyati, balki qo'shinlarning tezkor va jangovar tayyorgarligi tadbirlarini o'tkazish tajribasi, shuningdek, jangovar navbatchilik

paytida kundalik faoliyatda ular hal qiladigan vazifalar ortib borayotganidan dalolat beradi. Bugungi kunda harbiy qismlar va bo'linmalar yuqori texnologiyali harbiy va maxsus uskunalar bilan jihozlanmoqda, bu esa, harbiy xodimlarning ishlashi va jangovar qo'llanilishida tegishli nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni talab qiladi.

Jangovar harakatlarni tayyorlash va o'tkazish shakllari, usullari, qo'shinlar va qurollarni o'z vaqtida boshqarish bo'yicha zamonaviy va sifatli o'qitish harbiy ta'limning pedagogik fan va amaliyot bilan integratsiyalashuvi asosida sifatini oshirish orqali mumkin. Ushbu muammoni hal qilish usullaridan biri bu o'quv faoliyati subyektlari – oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining yangi texnologiyalari, shu jumladan, o'quv-mashq komplekslaridan foydalangan holda zamonaviy o'quv tizimlaridan foydalanish asosida kasbiy kompetentsiya darajasini oshirishdir.

Mazmuni tashkil qiluvchi qismlar deb, faqat o'zaro uzviy (funksional) aloqadorlikda bo'lgan qismlarga aytiladi. Majmuni tashkil qiluvchi qismlarning birining xususiyati o'zgarsa, qonuniy ravishda boshqa qismlarining ham xususiyatlari o'zgarishga uchrasa, uni funksional aloqadorlik deyiladi. Majmularning har biri faqat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bir-biridan shu xususiyatlar yig'indisi bilan ajralib turadi. Majmuning xususiyati faqat boshqa majmular bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Aloqadorlik deb, majmu xususiyatini paydo qilishiga aytiladi. Bog'liqlik esa, faqat ularning namoyon bo'lishidir. Narsa va hodisalarning funksiyaga bo'lgan nisbati funksiyaning namoyon bo'lishining asosi, majmuning ajralmas qismidir. Funksiyalar orqali majmular holati aniqlanadi. Majmud holatining ketma-ket namoyon bo'lishi jarayon deyiladi. Majmular nazariyasidan kelib chiqishlik, birinchidan, jarayonni bir necha o'n barobar osonlashtiradi va tezlashtiradi. Ikkinchidan, faoliyatni to'g'ri amalga oshirishning garovidir. Uchinchidan, muayyan faoliyatni boshqa kishilar tomonidan tezlashunib, tez o'zlashtirib olishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining rivojlanish darajasi sezilarli darajada oshdi, bu nafaqat oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining ilmiy salohiyati, balki qo‘shinlarning tezkor va jangovar tayyorgarligi tadbirlarini o‘tkazish tajribasi, shuningdek, jangovar navbatchilik paytida kundalik faoliyatda ular hal qiladigan vazifalar ortib borayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda harbiy qismlar va bo‘linmalar yuqori texnologiyali harbiy va maxsus uskunalar bilan jihozlanmoqda, bu esa, ekspluatatsiya va jangovar foydalanishda mutaxassislarning tegishli nazariy bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini talab qiladi. Bunday sharoitda jangovar harakatlarni tayyorlash va o‘tkazish shakllari, usullari, qo‘shinlar va qurollarni o‘z vaqtida boshqarish bo‘yicha zamonaviy va sifatli o‘qitish pedagogik fan va amaliyot bilan integratsiyalashuvi asosida harbiy ta’lim sifatini oshirish orqali mumkin.

Ushbu muammoni hal qilish usullaridan biri bu o‘quv faoliyati subyektlari – oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining zamonaviy texnologiyalari, shu jumladan, o‘quv mashq komplekslaridan foydalangan holda zamonaviy o‘quv tizimlaridan foydalanish asosida kasbiy kompetensiyalari darajasini oshirishdir.

Zamonaviy harbiy fan va qo‘shinlardan foydalanish amaliyotining holati urushlarning mavjud va istiqbolli shakllari va usullariga qarashlar tizimini yanada takomillashtirish, qo‘shinlar va bo‘linmalar guruhlarini O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa davlatlar sifatida qo‘llash, shuningdek, ularni moddiy-texnik qo‘llab-quvvatlash, turli maqsadlar uchun boshqaruv tizimlariga eng yangi texnologiyalarni joriy etish dinamikasi, qurol-yarog‘ namunalari, harbiy va asosiy harbiy-maxsus ma’lumotlarning eskirishi jarayonlari bilan birga keladigan maxsus uskunalar, shuningdek, vaqt o‘tishi bilan, o‘qituvchilarining mavjud bilimlari va kasbiy kompetensiyasi darajasini pasaytirish.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining zamonaviy kasbiy kompetensiyasi ko'rsatkichlarini aniqlash zarurati tug'iladi, bu pedagogik faoliyatning tuzilishini va ularning o'qituvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish qobiliyatini, eskirganlarini yangilash va yangi bilim, ko'nikma va malakalarni to'ldirishni aks ettiradi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tahlil qilish uning tuzilishining quyidagi asosiy elementlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi: oliy harbiy ta'lim muassasasi subyekt sifatida (rahbar, o'qituvchilar tarkibi, bo'linma qo'mondonlari), o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanadigan obyekt, axborot muhiti (ish o'quv dasturlari, baholash vositalari fondlari, tematik o'quv fanlari rejalari, o'quv-uslubiy materiallar, elektron ta'lim resurslari), texnik vositalari (kompyuter sinflari, o'quv-mashq komplekslari), zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar shakllari va usullari (guruh mashqlari, amaliy mashg'ulotlar, qo'mondonlik-shtab mashqlari, harbiy-maxsus o'yinlar).

Maqsadli komponent ijtimoiy buyurtma, oliy harbiy ta'lim muassasalari Davlat ta'lim standarti, modelning maqsadi va vazifalarini belgilaydigan o'qitiladigan fanlarning o'quv rejalari bilan mazmunli ifodalanadi.

Modelning maqsadi sifatida biz oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishni modelda o'zgarimas (aniq maqsad; printsiplar) va o'zgaruvchan (asosiy va oraliq vazifalarga erishish vositalari va usullari) tarkibiy qismlarining mavjudligi bilan tavsiflandik.

Model yaxlitdir, chunki ushbu tarkibiy qismlarning barchasi bir-biri bilan bog‘liq, ma’lum bir semantik yukni ko‘taradi va yakuniy natijaga o‘qituvchilar tomonidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyaga erishishga qaratilgan hamda amaliy harakatlarni tashkil etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi, shuning uchun u pragmatik xususiyatga ega.

Biz taklif qilayotgan model o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy harakatlarni tashkil etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining rivojlanish darajasini diagnostika va korrektsiyalash uchun tarkibiy qismlarning mazmuniga mos keladigan maxsus, ijtimoiy, individual va refleksiv komponentlaridan foydalanish.

Didaktik ta’minot jarayoni ta’lim va shaxsni rivojlantirish ta’sirini olishga qaratilgan edi. Tizimning har bir tarkibiy qismi yakuniy natijaga hissa qo‘shadi va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi.

### 1-jadval

#### Zamonaviy o‘qituvchining fazilatlari

<b>№</b>	<b>Fazilatlarning nomi</b>	<b>O‘qituvchining fazilatlari mazmuni</b>
1	O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi	Kasbiy pedagogik bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi, o‘qituvchining vazifalarini tushunish
2	Axloqiy fazilatlar	Axloqqa munosabat, xulq-atvor madaniyati
3	Tashkiliy qobiliyatlar	Odamlar bilan munosabatlarni o‘rnatish, tarbiyachi bo‘lish, odamlarga rahbarlik qilish qobiliyati
4	Ishbilarmonlik fazilatlari	Kasbiy faoliyatga mas’uliyatli munosabat; o‘zini va hayotini, vaqtini boshqarish qobiliyati; shaxsiy ishning qoidalari va usullarini bilish va ulardan foydalanish qobiliyat

Xorijiy oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar faoliyatini baholash mezonlari turlicha. Masalan, Rossiya Federatsiyasi oliy harbiy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari faoliyati beshta yo'nalish bo'yicha baholanadi: o'qituvchi to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlar; o'quv ishlari; tarbiyaviy ishlari; ilmiy-tadqiqot faoliyati; tashkiliy va ijtimoiy faoliyati.

Amerikalik o'qituvchilarning faoliyatini baholashda ularning turli darajadagi ilmiy forumlarda ishtirok etishi, kursantlarga o'qishda yordam berish, maslahat berish, ilmiy-texnik ishlanmalari natijalari, nashr etilishi hisobga olinadi.

O'qituvchilarni baholashda "iqtibos indeksi" deb nomlangan, ya'ni ilmiy nashrlarda ularning nashrlariga havolalarning chastotasi ham e'tiborga olinadi.

Germaniyada oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining ishini baholashning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat: ma'ruzalar o'qish va maslahat berish darajasi; uslubiy ishlanmalar; ilmiy va uslubiy nashrlarning soni va hajmi.

Chexiya oliy harbiy ta'lim tizimida professor-o'qituvchilar tarkibini baholashning quyidagi mezonlari amal qiladi: o'quv jarayonida mualliflik darajasi; ilmiy maqolalar va monografiyalarning mavjudligi; konferentsiyalarda ishtirok etishi.

Yaponiyaning oliy harbiy ta'lim tizimida o'qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezonlari: malaka darajasi; o'qitish usullari.

Hindistonning oliy ta'lim tizimida o'qituvchi faoliyatining uchta asosiy xususiyati mavjud: ilmiy malakalarining mavjudligi; ilmiy tadqiqotlar darajasi; pedagogik tajriba. Shuningdek, turli mamlakatlarda qo'llaniladigan o'qituvchilar faoliyatini baholash mezonlari sezilarli darajada emas, balki ko'rsatkichlar tafsilotlari darajasida farq qiladi.

Bugungi kunda bibliometrik ko'rsatkichlar o'qituvchining ishini baholashda baholash mezonlari sifatida faol foydalanilmoqda. Bibliometriya hujjatli oqimlar va massivlarda mavjud bo'lgan nashrlarning bibliografik

ma'lumotlarini miqdoriy tahlil qilishga asoslangan. Shunga o'xshash mezonlarga turli xil mavhum ma'lumotlar bazalaridagi iqtibos indeksleri kiradi: Scopus, Web of Science, shuningdek, Hirsch indeksi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasilarini o'qituvchining o'quv kursini belgilash, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va didaktik materiallarni ishlab chiqishga qo'shgan hissasi; kursning yaxlitligi va mantiqiy uyg'unligi, kursni bo'limlarga, mavzularga, individual darslarga bo'lishning ravshanligi; o'quv fanini zarur o'quv materiallari, vizualizatsiya vositalari bilan ta'minlash; o'quv fanining umumiy ilmiy darajasi, uning zamonaviy talablari va mutaxassislarni tayyorlash vazifalariga muvofiqligi; fanlararo aloqalarni hisobga olish.

Oliy harbiy ishlarda malakali mutaxassisni tayyorlash, shuningdek, metodologik, kompleks va amaliyotga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazish muammolarini hal qilish uchun yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar talab etiladi. Qurolli Kuchlar rahbariyati harbiy fan va ta'limning asosiy yo'nalishlarini samarali rivojlantirish, o'qituvchilar tomonidan turli bilim sohalarida yuqori malakaga ega bo'lish, shuningdek, innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun sharoit yaratdi.

Yuqorida aytib o'tilgan g'oyalar va dastlabki ilmiy ma'lumotlarni amalga oshiradigan asosiy nazariy qoidalar kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishga akmeologik yondashuv va pedagogik professionallikni rivojlantirish printsiplari edi.

Tizimning har bir tarkibiy qismi yakuniy natijaga hissa qo'shadi: o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga olib keladi.

**O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish komponentlari**

<b>Komponentlari</b>	<b>Indikatorlari</b>
Maxsus	O'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, muvaffaqiyatga erishish, mustaqillik, faollik, ijodkorlik, konstruktorlik, kompetensiyaviy yondashuv, ongli yondashuv, ijodkorlikka ongli yondashuv
Ijtimoiy	Bilish jarayonining rivojlanishi, diagnostika va korrektsiya qilish imkoniyati, ta'limiy vositasida intellektual-anglash malakalari
Individual	Tajriba-sinov o'tkazish, amaliy jarayon ta'sirida perspekti va amaliy analitik-sintetik faoliyat, erkinlik, samarali hamkorlik munosabatini yaratish, tashabbuskorlik va o'zini anglash
Refleksiv	Kompetensiyaviy yondashuv, mustaqillik, faollik, ijodkorlikka ongli yondashuv, samarali hamkorlik munosabatini yaratish

O'qituvchi tomonidan o'quv materialini taqdim etish shakli, o'rganilgan materialni qiziqarli va tushunarli tarzda tushuntirish qobiliyati, o'quvchilarda o'quv motivini oshirishga yordam beradi.

Bunda professional ta'lim muassasalarida informatika fanini differensial o'qitish orqali o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarning shakllantirishining uslubiy-didaktik ta'minotini mazmunan takomillashtirish nazarda tutiladi.

O'quvchilarda mavzuni o'zlashtirganliklarini anglashning asosiy omili savol-javob orqali amalga oshiriladi. Savolni qay darajada to'g'ri berish hamda berilgan savolga o'quvchining javobini to'g'ri anglashning eng asosiy omili savolni qay darajada o'qituvchi tomonidan taqdim etilishi asosiy vazifa bajaradi. Savol o'quvchidagi mavzuga bo'lgan qiziqishini ham oshirib o'rganilgan


mavzuni mustahkamlash uchun asosiy jarayon hisoblanadi. Savolning qanday taqdim etilishi o'qituvchining pedagogik qobiliyati bilan uzviy bog'liqdir.

O'qituvchi bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket bir nechta usullardan foydalanish mumkin: murabbiylik, o'z loyihalarini amalga oshirish, ish joyida ko'nikmalarni rivojlantirish, treninglar va seminarlarda qatnashish, o'z-o'zini o'rganish, o'z-o'zini anglash. O'qituvchining kompetensiyasini rivojlantirish usullari va maqsadlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Masalan, biz tadqiqotda "70/20/10" usulni qo'lladik, u polegonda maksimal ishlashni o'z ichiga oladi. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi darajasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari uning samaradorligini oshirishdir.

Bundan tashqari, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini maksimal darajada rivojlantirishga va undan tashkilot manfaati uchun foydalanishga imkon beradi.

Kasbiy kompetensiya – bu o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o'qituvchining samarali xulq-atvorini ta'minlaydigan yuqori ixtisoslashgan nazariy va empirik bilimlar, shaxsiy fazilatlar va hayotiy munosabatlar kiradi.

O'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish to'rt darajadan biriga to'g'ri keladi: 1) ongsiz qobiliyatsizlik – "Men hech narsani bilmayman va ahamiyat bermayman"; 2) ongli qobiliyatsizlik – "Men bilim etishmasligini tushunaman"; 3) ongli kompetentsiya – "Men ko'nikmalarni rivojlantiraman va kerakli tajribaga ega



**2-rasm. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli**

bo‘laman”; 4) ongsiz kompetensiya – “Men kerakli ko‘nikmalarni avtomatik ravishda qo‘llayman, men o‘z bilim va tajribamni boshqalarga etkaza olaman, ustoz yoki murabbiy sifatida harakat qilaman.

“360 daraja” usulidan foydalanish o‘qituvchining hamkasblari, rahbariyati, kursantlari va ularning ota-onalarining kasbiy kompetensiyasi to‘g‘risida fikrlar ro‘yxatini tuzishni o‘z ichiga oladi, bu esa, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining daraja spektrini mos ravishda oshirishga imkon beradi.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining rivojlanish darajasini aniqlash uchun kompetensiyasi bo‘yicha intervyularni tashkil qildik. Shaxsiy rivojlanish rejasini tuzishda o‘qituvchining kompetensiyasini rivojlantirishning uchta asosiy usulidan biri tanlanadi: muammoli kompetensiyalarni rivojlantirish; rivojlangan ko‘nikmalarni faol qo‘llash orqali muammoli joylarni qoplash; maksimal samaradorlikni ta‘minlaydigan dastlabki ikkita usulni uyg‘un ravishda birlashtirgan kompleks strategiya.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining rivojlantirish usullari orasida “70/20/10” metodidan foydalanish mumkin. Kompetensiya quyidagi strategiyaga rioya qilgan holda bajarildi: o‘qituvchi vaqtning 10 foizini nazariyani bilishga bag‘ishladi – har qanday o‘z-o‘zini o‘rganish usullari adabiyot va YouTubedagi o‘quv videolaridan tortib turli seminarlar va ma‘ruzalargacha qo‘llanildi; vaqtning 20 foizi o‘qituvchi hamkasblari bilan muloqot qildi, eng tajribali o‘qituvchilardan samarali ish xatti-harakatlarining eng yaxshi amaliyotlarini qabul qildi, murabbiylik, tyutor, badding yoki mentorlik tizimiga kiradi, shuningdek, rivojlanayotgan kompetensiyalar dinamikasi to‘g‘risida batafsil fikr-mulohazalarni (“360 gradus”) oldi; vaqtning 70 foizi olingan bilim, ko‘nikma va tajribani amalda qo‘llash, ish joyida ko‘nikmalarni rivojlantirish, kundalik vazifalardan aniq kasbiy vazifalarni bajarish, o‘qituvchilarni yo‘qligida almashtirish, o‘z g‘oyalarini boshlash va ishlab chiqish uchun ajratilgan bo‘lib, ular foydali bo‘ladi va talab qilinadigan

ko'nikmalardan foydalanishni rivojlantirishga qaratilgan boshqa amaliy harakatlar amalga oshirildi.

Metodik model kasbiy kompetensiyalar tizimining barqaror, progressiv shakllanishini ta'minlovchi an'anaviy va innovatsion komponentlar va aloqalarning dialektik birligini ta'minlashi lozim. Ishlab chiqilgan metodik modelning mazmuni murakkab bo'lib, quyidagi bloklardan iborat: maqsadli, mazmunli, jarayonli va natijali (1-rasm).

Акмеологик mexanizmlar amalga oshirish nuqtai nazaridan o'qitish samaradorligiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan muhim sabab, ular o'quv mashg'ulotlarini tanlash va amalga oshirishga imkon beradigan o'quv materiallari tarkibini tanlash bo'yicha maqsadli faoliyat bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotimizda obyekt sifatida oliy harbiy ta'lim muassasasi, subyekt sifatida o'qituvchilar olindi. Hamkorlikda o'qitish rejalari va yo'l xaritalari oliy harbiy ta'lim muassasasida tasdiqlanadi va amalga oshiriladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisi o'zini o'zi rivojlantirishi kerak, shu jumladan: hayotiy maqsadlarni shakllantirish va amalga oshirish qobiliyati (o'zini bilish qobiliyati, qaror qabul qilish qobiliyati, professional martaba rejalashtirish qobiliyati, jamoaga moslashish qobiliyati); shaxsiy tashkilotchilik (kasbiy faoliyatni tashkil etish qoidalari va usullarini bilish va ulardan foydalanish qobiliyati, ularning pedagogik faoliyatini tashkil etish va tahlil qilish qobiliyati, tizimda yashash va ishlash istagi, o'z faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalari, o'z harakatlarini rag'batlantirish qobiliyati); o'z-o'zini tarbiyalash (majburiyat, so'zni ushlab turish qobiliyati, aniqlik, to'planish, tarqalmaslik qobiliyati, mas'uliyat hissi); kasbiy faoliyat texnologiyasini bilish (ish joyini maqbul tashkil etish sifatida ergonomika, yunogogika, ma'lumot bilan ishlash qobiliyati, telefonda gaplashish qobiliyati; tinglash qobiliyati; telegram, vatsab, instagramm, feysbuklarda muloqotni tashkil etishda madaniyatli bo'lish; o'z ishlarini rejalashtirish qobiliyati; shaxsiy mehnatni ratsionalizatsiya qilish usullarini bilish; zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyati; aloqa

texnologiyasini bilish); hissiy salohiyat (iroda, mehnatsevarlik, ishda qat'iyatlilik ishga ishtiyoq (kasb) ishdan qoniqish quvnoqlik, nekbinlik, oilaviy farovonlik); shaxsiy o'zini o'zi boshqarish (kasbiy faoliyat jarayonlarini boshqarish qobiliyati; faoliyat natijalarini nazorat qilish qobiliyati; o'z imidjini shakllantirish qobiliyati, yuqori obro'-e'tiborni saqlab qolish qobiliyati).

Akmeologik mexanizmlar asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining rivojlanishi kasbiy qadriyatlar mazmunini bilish va ularni kasbiy faoliyat motivatsiyasi va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish nuqtai nazaridan shaxsiy ahamiyatga ega deb qabul qilish, kasbiy faoliyatning shaxsiy maqsadlari va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish, ularning bir-biriga muvofiqligi, kasbiy yo'lini bashorat qilish qobiliyati, kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va ta'lim ehtiyojlari, kasbiy muvaffaqiyatga erishish, refleksiv qobiliyatlarning mavjudligi, kasbda o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash istagi. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining rivojlanish darajasini diagnostika va korrektsiyalash uchun tarkibiy qismlarning mazmuniga mos keladigan kommunikativ, hamkorlik, kognitiv va universal mezonlaridan foydalanish.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish omili sifatida akmeologik mexanizmlarni amalga oshirish samaradorligi pedagogik shart-sharoitlarning kombinatsiyasi bilan ta'minlanadi, ularda ustuvor ahamiyatga ega: axborot shartlari (ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar): ta'lim mazmunining konteksti; ta'lim mazmunini qiymat bilan to'ldirish.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning modeli maqsadli, mazmunli va natijali bloklar uzviyligida va metodik yondashuvlar va tamoyillar hamda ta'limiy-tarbiyaviy funksiyalarning komplekslarini tashkil etish hamda muvozanatlashtirish orqali takomillashtirildi.

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**

Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari quyidagi xulosalar chiqarishga imkon berdi:

1. Akmeologik mexanizmlar pedagogik muammolarni hal qilishga imkon beradigan printsiplar, texnologiyalar va usullar tizimi ekanligi isbotlangan. Uni oliy harbiy ta'lim muassasalarida joriy etishning mohiyati o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini oshirishga qaratilgan tadqiqot va shakllantiruvchi ta'sirlarga qaratilgan bo'lib, bu o'qituvchilar uchun ilg'or ta'lim va tarbiya texnologiyasini o'z ichiga oladi, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Oliy harbiy ta'lim muassasalari amaliyotida akmeologik mexanizmlar amalga oshirish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

2. Akmeologik mexanizmlarni amalga oshirishning natijasi o'qituvchilarning akmeologik yo'nalishi bo'lib, u tegishli tarkibga ega bo'lgan quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: kasbiy va qiymat yo'nalishlari (pedagogik faoliyatning ijtimoiy shartli qadriyatlarini: kursantning erkin, uyg'un shaxsini tarbiyalash, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kognitiv qiziqishlarni rag'batlantirish, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj va istakni yangilash; pedagogik faoliyatning shaxsiy qadriyatlarini: qadriyatga yonaltirilgan maqsadlar (kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirish va o'qituvchilarning yoqtirgan ish bilan shug'ullanish qobiliyati, kasbiy o'zini takomillashtirish) va qadriyatga yonaltirilgan vositalar (pedagogik faoliyatning ijodiy tabiati, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish); kasbiy maqsadlarni belgilash (pedagogik maqsadlarni anglash, kasbiy faoliyatning o'z maqsadlarini tanlash va kasbiy o'zini takomillashtirish, kasbiy faoliyat va o'z o'zini takomillashtirish, maqsadlari ierarxiyasini anglash), kasbiy motivatsiya (pedagogik faoliyat jarayoni va mazmuniga qiziqish (o'quv faoliyati, pedagogik aloqa, bilimlar), pedagogik faoliyat natijasining ahamiyatini anglash, yuqori sifatli ta'limni olish zarurati), kasbiy muvaffaqiyatga intilish (kasbiy mahoratga erishish motivatsiyasi), o'z-o'zini rivojlantirish istagi, ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlik, o'zini aks ettirish tendentsiyasi va qobiliyati.

3. Akmeologik mexanizmlar asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining rivojlanishi kasbiy qadriyatlar mazmunini bilish va ularni kasbiy faoliyat motivatsiyasi va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish nuqtai nazaridan shaxsiy ahamiyatga ega deb qabul qilish, kasbiy faoliyatning shaxsiy maqsadlari va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish, ularning bir-biriga muvofiqligi va kasbiy yo'lini bashorat qilish qobiliyati, kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va ta'lim ehtiyojlari, kasbiy muvaffaqiyatga erishish, refleksiv qobiliyatlarning mavjudligi, kasbda o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi bilishi, o'zini o'zi anglashi va o'zini namoyon qilishiga ustuvor ahamiyat berish muvofiqdir. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining rivojlanish darajasini diagnostika va korrektsiyalashda tarkibiy qismlarning mazmuniga mos keladigan kommunikativ, hamkorlik, kognitiv va universal mezonlaridan foydalanish.

4. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish omili sifatida akmeologik mexanizmlarni amalga oshirish samaradorligi modelning samarali ishlashini ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarning kombinatsiyasi ustuvor ahamiyatga ega: axborot shartlari (ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar, uning konteksti ta'lim mazmunini qiymat bilan to'ldirish bilan ta'minlanadi, nazariy jihatdan asosli va eksperimental ravishda sinovdan o'tkaziladi.

5. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida akmeologik mexanizmlar asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammolarini hal qilishga imkon beradigan printsip, texnologiya va usullar tizimi ekanligi isbotlangan. Uni kasbiy ta'limga joriy etishning mohiyati o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini ro'yobga chiqarishga, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan tadqiqot bo'lib, bu o'qituvchilar uchun ilg'or ta'lim-tarbiya texnologiyasini o'z ichiga oladi hamda o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Oliy harbiy ta'lim amaliyotida akmeologik mexanizmlarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirdi.

6. Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli maqsadli, mazmunli va natijali bloklar uzviyligida va metodik yondashuvlar, tizimlilik, ilmiylik, ketma-ketlik, uzluksizlik, izchillik, ko'rgazmalilik tamoyillar hamda o'zaro aloqadorligi, madaniyatlararo muloqot, o'z-o'zini anglash va transformatsiya funksiyalarining komplekslarini tashkil etish hamda muvozanatlashtirish orqali takomillashtirildi.

7. O'qituvchilarda kasbiy kompetensiyasining maxsus, ijtimoiy, individual va releksiv komponentlarini shakllantirishning metodik ta'minoti mazmuni strategik rivojlantirish, tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, predmetli-didaktik shart-sharoitlarni va subyekt-subyekt o'zaro ta'sirlashuvchi muhitning o'zaro hamkorligini ta'minlash orqali rivojlantirildi.

8. Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda takomillashtirildi.

**III-BOB. AKMEOLOGIK MEXANIZMLAR ASOSIDA  
OLYI HARBIY TA'LIM MUASSASALARI O'QITUVCHILARINING  
KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA  
TAJRIBA-SINOV ISHLARINING SAMARADORLIGI**

**3.1-§. Akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari  
o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni  
tashkil etish metodikasi**

Akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarida Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurtidan 72 respondentlar, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasidan 49 respondentlar va O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazidan 67 respondentlar, jami 188 nafar respondentlar ishtirok etdi. Biz tajriba-sinov ishlarini o'tkazish dasturini ishlab chiqdik va shu dasturga muvofiq akmeologik mexanizmlar o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi: ta'kidlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy.

Birinchi – ta'kidlovchi bosqichida (2021-2022) – o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi, kuzatish orqali o'qituvchilarning tanlangan kasbga munosabati, tanlov motivlari, kasbiy qiziqishlari, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarning shakllanish darajasi o'rganildi, o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasining haqiqiy holati aniqlandi, kasbiy amaliyotning o'quv rejalari, dasturlari o'rganildi va tahlil qilindi, respublika va xorijdagi pedagogik tajriba o'rganildi va umumlashtirildi, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasini aniqlaydigan so'rovnoma o'tkazildi va uning natijalari tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish jarayonida biz O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi, O'zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi va Chirchiq oliy harbiy qo'mondonlik tank muhandislik bilim yurti o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini o'rganib chiqdik, o'quv yili uchun o'qituvchilarning 188 ta individual ish rejalarini tahlil qildik.

Bundan tashqari, tajriba-sinov ishlari jarayonida biz 188 nafar o'qituvchining pedagogik faoliyatini maqsadli kuzatib bordik, ular bilan suhbatlar o'tkazdik.

Ikkinchi – shakllantiruvchi bosqichida (2022-2023) – tadqiqot metodikasi takomillashtirildi, kasbiy faoliyatning turli bosqichlarida ko'nikmalar va o'qituvchilarning kasbga bo'lgan shaxsiy faoliyati inobatga olindi hamda mezonlari va indikatorlari aniqlandi, muammoni hal qilishning akmeologik mexanizmlari ishlab chiqildi.

Uchinchi – yakuniy bosqichida (2023-2024) – oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yonaltirilgan usullar muammoni tahlil qilishda va vazifalarni shakllantirishda, pedagogik vaziyatlarni aniqlashtirishda ishlatildi, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tizimi tajriba-sinovdan o'tkazildi va natijalari umumlashtirildi, uning davomida ishning dolzarbligi tasdiqlandi, o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi, dissertatsiya va avtoreferat rasmiylashtirildi.

Mazkur tadqiqotda muallifning bo'linmalarda xizmat qilgan, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olgan va hozirda katta o'qituvchi sifatida oliy harbiy ta'lim muassasasida dars olib borayotgan shaxsiy ko'p yillik pedagogik tajribasi ham mazkur tadqiqotda keng qo'llanildi.

*Biz o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uchta darajaga tayyandik: past, o'rta va yuqori.*

3-jadval

**O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini baholash  
mezonlari va ko‘rsatkichlari**

	<b>Maxsus</b>	<b>Ijtimoiy</b>	<b>Individual</b>	<b>Refleksiv</b>
<b>Yuqori</b>	kasbga nisbatan qadriyatli munosabatning shakllanganligi; doimiy kasbiy rivojlanish zaruratini anglash; o‘qituvchilik faoliyatida doimiy ravishda kasbiy kompetensiyasi rivojlantirish namoyish etadi; kommunikativlik ko‘nikmalarni egallashga bo‘lgan qadriyatli munosabat	o‘zining kasbiy faoliyatini har tomonlama tahlil qiladi; o‘zining kasbiy tajribasini umumiy jihatdan tahlil qiladi; kasbiy faoliyatdagi muammolarni tahlil qiladi va ularni ahamiyatlilik darajasiga qarab ajratadi; kasbiy faoliyatda o‘zini doimiy rivojlantirish strategiyasini belgilaydi va to‘ldirib boradi	o‘zini kasbiy rivojlantirish maqsadini qanday aniqlashni biladi; kasbiy rivojlanish vazifalari va mazmunini qanday aniqlashni biladi; kasbiy rivojlanish bosqichlarini ajratadi va oldindan bashorat qilishni biladi	o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholashda faoliyat turidagi ta’lim texnologiyalarining zamonaviy vositalarini tizimli ravishda qo‘llaydi; o‘z-o‘zini rivojlantirish, boshqarish uchun maqbul sharoitlarni yaratadi; loyihalash faoliyatiga ega

O'rt	kasbga nisbatan bo'lgan qadriyatli munosabati noaniq tarzda ifodalanadi; kasbiy faoliyatni doimiy ravishda rivojlantirishga bo'lgan zarurat doimiy kuzatilmaydi; kommunikativlik ko'nikmalarini egallashga bo'lgan qadriyatli munosabat har doim ham o'z ifodasini topmaydi	kasbiy faoliyatdagi tajribasini qisman tahlil qiladi, muammolarni tahlil qiladi va ularning ahamiyatlilik darajasini aniqlash qobiliyati yetarlicha rivojlanmagan; kasbiy faoliyatda o'zini doimiy rivojlantirish texnologiyasini har doim ham qo'llamaydi	o'zining kasbiy xulq-atvorini qisman tahlil qiladi; o'zini kasbiy rivojlantirish dasturi maqsadini va mazmunini aniq belgilay olmaydi; kasbiy rivojlanishning vazifalari aniq belgilay olmaydi; kasbiy rivojlanish bosqichlarini ajratadi, ammo oldindan bashorat qilishni bilmaydi; o'z-o'zini nazorat qilish va baholashda faoliyat turidagi ta'lim texnologiyalarining zamonaviy vositalarini tizimli ravishda qo'llay olmaydi	loyihalash faoliyatini tizimli ravishda olib bormaydi; o'zini kasbiy rivojlantirish maqsadini aniqlay olmaydi; kasbiy kompetensiyasini rivojlanish vazifalari va mazmunini belgilay olmaydi; kasbiy rivojlanish bosqichlarini ajrata olmaydi va oldindan bashorat qilishni bilmaydi
Past	kasbga nisbatan bo'lgan qadriyatli munosabalar ifoda etilmaydi; kasbiy faoliyatni doimiy ravishda rivojlantirishga bo'lgan zarurat kuzatilmaydi; kommunikativlik ko'nikmalarni egallashga bo'lgan qadriyatli munosabat kuzatilmaydi	o'zining kasbiy xulq-atvorini past darajada (qisman) ham tahlil qilmaydi; kasbiy faoliyatdagi tajribasini past darajada (qisman) ham tahlil qilmaydi; kasbiy faoliyatdagi muammolarini va ularning ahamiyatini aniqlay olmaydi	o'z-o'zini rivojlantirish va boshqarish uchun har doim ham maqbul sharoitlarni yaratmaydi; loyihalash faoliyatini qo'llamaydi; namoyish etmaydi; o'zining doimiy kasbiy rivojlanish strategiyasini belgilamaydi	o'z-o'zini nazorat qilish va baholashda faoliyat turidagi ta'lim texnologiyalarining zamonaviy vositalarini tizimli ravishda qo'llamaydi; o'z-o'zini rivojlantirish, boshqarish uchun har doim ham maqbul sharoitlarni yarata olmaydi

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlantirishning *past darajasi* o‘qituvchining kasbiy faoliyatga tayyorligi bilan tavsiflanadi; o‘qituvchining kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi; individual xususiyatlar va fazilatlarni, konstruktiv bo‘lmagan xatti-harakatlar va pedagogik o‘zaro ta’sirni anglash va o‘zini o‘zi baholashdan tashkil topadi.

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlantirishning *o‘rtacha darajasi* analitik fikrlash qobiliyati, kasbiy vazifalarni bajarishda kompleks yondashuvni amalga oshirish bilan tavsiflanadi: shaxsiy o‘zini namoyon qilish va rivojlantirish usullarini o‘zlashtirish qobiliyati, vaziyatga muvofiq harakat qilish qobiliyati; kommunikativ va integral qobiliyatlarning mavjudligi; munosabatlarni saqlab qolish, professional muloqot usullarini o‘zlashtirish qobiliyati kiradi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning *yuqori darajasi* o‘qituvchisi uchun tajribaning barcha tarkibiy qismlarining uyg‘un kombinatsiyasiga, boshqa o‘qituvchilar va o‘zini bilishga asoslangan doimiy o‘zini o‘zi bilish xarakterlidir. Ular eng munosib o‘zini o‘zi qadrlash, o‘z shaxsiyati va faoliyatining afzalliklari va kamchiliklariga alohida sezgirlik, ijodiy muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini tushunish qobiliyati, o‘z kasbiy faoliyati natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati bilan ajralib turadi. Yuqori darajadagi professional o‘qituvchilar yaxlit tasvirga ega va ular o‘zlarining kasbiy qobiliyatlarini mohirona tashxislashlari tufayli o‘zlarining pedagogik harakatlarini muvaffaqiyatli tartibga soladilar, ta’lim muammolarini hal qilishda yuqori darajaga erishadilar – ular nafaqat kursantlarning bilim tizimini modellashtiradilar, balki ularda zarur qiymat yo‘nalishlari va shaxsiy xususiyatlarini shakllantiradilar.

Tajriba-sinovning shakllantirish bosqichida eksperimentning asosiy vazifalari o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan kontseptual qoidalarining samaradorligi, uni takomillashtirish usullari va shartlarini aniqlash edi. Muallifning bo‘linmalarda xizmat qilgan va oliy harbiy ta’lim muassasasida tahsil olgan va hozirda katta o‘qituvchi sifatida dars

olib borayotgan o'qituvchilar sifatidagi shaxsiy ko'p yillik tajribasi ham tadqiqotda keng qo'llanilgan.

Tajriba-sinov ish jarayonida:

1) "o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi" tushunchasining mohiyati ochib berildi, bu kasbiy faoliyat tufayli o'qituvchining kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va sifatleri majmuasini o'z ichiga olgan maxsus, ijtimoiy, individual va refleksiv komponentlardan iborat.

2) O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish kontsepsiyasi bir qator g'oyalarni o'z ichiga oladi: kasbiy rivojlanish jarayonida rivojlanishning birligi g'oyasi; o'qituvchiga ma'lum bir pozitsiyani egallashga imkon beradigan maxsus vaziyatlar asosida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, unda intellektual va amaliy sohalar bilan bir qatorda, o'qituvchi shaxsining hissiy sohalarini faolroq ishlay boshlaydi; o'qituvchining pozitsiyasini o'zgartirish formulasi qo'llaniladi: "o'qituvchi – kursant", "o'qituvchi – o'qituvchi". Nazariy qoidalar o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda akmeologik mexanizmlarini inobatga olish.

3) Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish qonuniyatlarini quyidagicha shakllantirish mumkin: professional kasbiy faoliyatdagi qarama-qarshiliklarni qanchalik ko'p engib chiqsa, uning rivojlanish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi; professionalning rivojlanishi u bilan bevosita yoki bilvosita aloqada bo'lgan boshqa barcha mutaxassislarning rivojlanishi bilan bog'liq; o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining ijtimoiy mavqeini oshirish; o'qituvchilarning kasbiy faoliyati jarayonida pozitsion vaziyatlardan foydalanish.

4) Pedagogik professionallikni rivojlantirish printsipi majmui: ilmiy asoslangan talablar ko'rinishidagi qarshilikni engib o'tish orqali pedagogik professionallikni rivojlantirish; mavjud voqelikka nisbatan o'qituvchilarni oldindan tayyorlash; o'qituvchi faoliyatidagi pozitsiyalarning o'zgaruvchanligi;

o'qituvchining pedagogik va ijtimoiy tajribasini birlashtirish, aks ettirish va individual o'zini o'zi rivojlantirish.

5) Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muvaffaqiyatini ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar: o'qituvchining subyektiv pozitsiyasini ta'minlash, kasbiy tayyorgarlik jarayonida pozitsiyalarni o'zgartirish, vaziyatli vazifalardan foydalanish; oliy harbiy ta'lim muassasasining maqsadli funktsiyasi sifatida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish; o'qituvchining kasbiy kompetensiyaga alohida ahamiyat berish; oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish strukturaviy nuqtai nazardan, kasbiy kompetensiya maqsadli, mazmunli va natijali tarkibiy bloklarni o'z ichiga olgan oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan hamda model tarkibiy bloklarning yaxlit birligidir. Maxsus, ijtimoiy, individual va refleksiv komponentlarining mazmuni Davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladi hamda o'qituvchi tomonidan pedagogik faoliyatni o'zlashtirish va amalga oshirish jarayonini aks ettiruvchi mexanizmlarni (o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini baholash, introspektsiya, o'zini o'zi boshqarish) kiritish orqali amalga oshiriladi.

Akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, partisipativ (shaxslararo muloqotni takomillashtirish) yondashuvlarga asoslangan holda hal etishning samaraliligi asoslashtirilgan; "o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, uning tuzilishi, namoyon bo'lish darajasi, rivojlanish texnologiyasi va bahosi" tushunchasining mazmuni aniqlangan; oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari (tizimlilik, ilmiylik, ketma-ketlik, uzluksizlik, izchillik, ko'rgazmalilik) aniqlashtirilgan.

Biz kasbiy kompetensiyasini o'qituvchining shaxsiyatining sifatida aniqlash mumkin deb hisobladik, bu uning kasbiy faoliyat jarayonida muammolarni samarali hal qilishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiradi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari faoliyatini tahlil qilish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda bir qator dolzarb muammolar aniqlandi: o'qituvchilar o'zlarining fan tayyorgarligi darajasini yuqori baholaydilar va pedagogik texnologiyalarni uslubiy tayyorlash va o'zlashtirish o'rtacha darajada; respondentlarning qariyb 19% o'zlarining kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatini kasbiy kompetensiya darajasi bilan bog'lamaydilar; o'qituvchilarning 40% dan ortig'i o'quv jarayonining istiqbolli, dolzarb maqsad va vazifalarini aniqlashda, shuningdek, samarali o'quv vositalarini tanlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Mazkur muammoni hal qilish o'qituvchini pedagogik va tadqiqot faoliyatiga turli shakllari va usullariga kiritish, uslubiy seminarlar o'tkazish, ochiq darslarda qatnashish, ularni muhokama qilish, ilmiy natijalarni amaliyotga va o'quv jarayoniga joriy etishga ko'maklashish orqali ta'minlanishi mumkin. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun biz taklif qilgan mexanizmlar ularga mazmunli sifatlarni jadal egallashga yordam berish uchun mo'ljallangan.

Tajriba-sinov ishlarini takomillashgan model asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish dinamikasiga oid kompleks ishlari amalga oshirildi: o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish dinamikasiga ta'siri darajasini tekshirishda, biz, tajriba-sinov davomida hal qilinadigan asosiy vazifalarning mohiyatini belgilab oldik: 1) tajriba-sinov ish dasturini ishlab chiqish; 2) tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirish; 3) pedagogik tajriba-sinov ishlarining metodik ta'minotini ishlab chiqish; 4) pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish mexanizmlarini aniqlash; 5) pedagogik shart-sharoitlarning oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligiga ta'sirini

tajriba-sinov ishi jarayonida amalga oshirish; 6) ishlab chiqilgan model doirasida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini tajriba-sinov ishlarida tekshirish.

Tajriba-sinov dasturni ishlab chiqishda biz o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining tuzilishiga va ma'lumotlarning asosliligi, barqarorligi, to'g'riligi va aniqligi tamoyillariga tayandik. Bu o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini baholashda bilim, ko'nikma va shaxsiy o'sishiga e'tibor qaratildi. Ularning namoyon bo'lishining turli darajalari oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish darajasini tavsiflaydi: yuqori, o'rta va past.

Tajriba-sinov ishning ta'kidlovchi bosqichida olgan natijalarimiz quyidagi xulosalar chiqarishga imkon berdi: 1) mavjud oliy harbiy ta'lim tizimi sharoitida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tizimli va izchillikning yo'qligi, ushbu jarayonning mazmunli va amaliyotga yo'naltirilgan tomonlarining etarli darajada rivojlanmaganligi bilan tavsiflanadi; 2) oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ushbu jarayonning maxsus modelini ishlab chiqish va uni pedagogik sharoitlar majmuasi asosida amalga oshirish orqali ta'minlanishi mumkin.

Tajriba-sinov ishlari jarayoni o'tkaziladigan individual parametrlarning shartlari bilan moslashtirilgan turli guruhlarda maqsadli o'zgaruvchanlik va yakuniy o'quv natijalarini taqqoslash bilan tavsiflanadi. Birinchi bosqichda ishlab chiqilgan model doirasida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligiga birinchi shartning ta'siri tekshirildi.

Mazkur vazifani amalga oshirish uchun sinovdan o'tgan tajriba va nazorat guruhleri shakllantirildi, unda o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish an'anaviy o'qitish doirasida amalga oshirildi. Tajribada birinchi shartni amalga oshirish mexanizmlari pedagogik obyektlarni loyihalash

bosqichlarining mohiyatini tashkil etuvchi jarayonlarni ketma-ket bajarish jarayonida amalga oshirildi: vaziyatli topshiriqlarni tanlash, qo'llash va tajriba-sinov ishlarida tekshirish.

Birinchi bosqichda "Kiyim-kechak ta'minotini tashkillashtirish" o'quv fanining mavjud dasturini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan pedagogik g'oyalar tanlandi va mohiyati aniqlandi. Ikkinchi bosqichda o'quv dasturining tuzilishi va mazmuni ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishining ikkinchi bosqichidagi pedagogik jarayonlarning ketma-ketligi, mazmuni va o'zaro bog'liqligini aniqlash uchun uning umumiy tuzilishini rivojlantirish, o'ziga xos tarkibiy qismlar algoritmini aks ettiruvchi dasturdan iborat edi. Keyingi bosqichda o'quv materiallari tuzilgan va ular axborot bilan ta'minlangan.

Tajriba-sinov ishlarning uchinchi bosqichi akmeologik mexanizmlarning biz takomillashtirilgan model doirasida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi tekshirildi.

Nazorat guruhi an'anaviy metodologiya bo'yicha o'qitildi va tajriba-sinov guruhda o'quv jarayoni akmeologik mexanizmlarning ta'sirida o'tkazildi.

Pedagogik shart-sharoitlar tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi va amalga oshirilishi tajriba-sinov ravishda tasdiqlangan. Uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: 1) o'qituvchilarning motivatsion sohasini rivojlantirish; 2) ularda aks ettirish ko'nikmalarini takomillashtirish.

Tadqiqot natijalari akmeologik mexanizmlar asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi rivojlantirish texnologiyasi yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Bular o'qituvchilarning bilim almashish, muloqot qilish va hamkorlik ko'nikmalarini oshirishga xizmat qildi.

Pedagogik diagnostika va korreksiya metodlari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi darajasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu metodlar orqali o'qituvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va rivojlanish darajasi aniqlanib, ularga mos ta'lim berish imkoniyati yaratiladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, tajriba-sinov ish jarayonida o'qituvchilar o'zlariga ishonch hosil qilishadi, ular o'rgangan materiallar hajmi va uni tushunish chuqurligi hamda ularning kognitiv faolligi oshadi; ular o'rtasidagi munosabatlarning tabiati o'zgaradi, birdamlik kuchayadi, o'z-o'zini va o'zaro hurmat esa, tanqidiylik, o'z va boshqalarning imkoniyatlarini etarlicha baholash qobiliyati bilan bir vaqtda o'sadi.

Tadqiqotda maqsadli, mazmunli va natijali tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan; o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish jarayonida modelning samarali ishlashini ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar nazariy jihatdan asosli va tajriba-sinovdan o'tkazildi; pedagogik sharoitlarni har tomonlama amalga oshirish mantig'ini aks ettiruvchi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Mazkur jarayon nazariy va ahamiyatli. Bu qo'yidagi tamoyillarda o'z aksini topgan: tizimlilik, ilmiylik, ketma-ketlik, uzlukzislik, izchillik, ko'rgazmalilik va "o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi" tushunchasining mazmuni aniqlandi, uning tuzilishi hamda rivojlanish darajalari aniqlangan.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyani qo'llash jarayonini uslubiy qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, uning diagnostika vositalari pedagogik sharoitlarda amalga oshirish texnologiyaga asoslangan.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari har doim rahbar organlar, oliy harbiy ta'lim muassasalarining pedagogik jamoalari diqqat markazida bo'lib kelgan va bir qator ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelgan.

Yuqorida muhokama qilingan nazariy qoidalarga asoslanib, biz kasbiy kompetensiyani o'qituvchining shaxsiyatining sifati, uning kasbiy muammolarni samarali hal qilishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettirish sifatida aniqlash mumkin deb hisobladik. Strukturaviy nuqtai nazardan, kasbiy kompetensiya kognitiv, tashkiliy va reflektiv tarkibiy qismlarning yaxlit birligidir.

Dastlabki komponentlarning tuzilishi Davlat ta'lim standarti bilan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladi.

Refleksiv komponent aks ettiruvchi texnologiyani (o'z-o'zini baholash, introspektsiya, o'z-o'zini loyihalash, o'zini o'zi boshqarish va boshq.) kiritish orqali o'qituvchilarning kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini tartibga soladi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining modelini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy ilmiy va pedagogik adabiyotlarda har qanday ta'lim jarayonlari tizim sifatida ko'rib chiqiladi, shuning uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni tizimdir.

Akmeologik mexanizmlarni amalga oshirish jarayonida o'qituvchining kasbiy rivojlanishi uchun model ishlab chiqilgan.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqishda biz ilmiy model o'rganilayotgan hodisa mohiyatining mavhum ifodasi ekanligiga asoslandik.

Tadqiqotda voqelik modelining o'xshashlik darajasi tadqiqot maqsadi bilan bog'liq bo'lib, loyihalashtirilgan modelning turi – tarkibiy turdagi model aniqlandi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli quyidagi mantiqqa tashkil etldi: 1) model chegaralarini aniqlash va tadqiqot maqsadini shakllantirish; 2) tadqiqotning maqsad va vazifalarini shakllantirish; 3) model tarkibiy qismlarini asoslash va ularning mazmunini ishlab chiqish; 4) modelning samarali ishlashi uchun shart-sharoitlarni ta'kidlash; 5) ushbu modelni amalga oshirishda erishilishi kerak bo'lgan asosiy natijani aniqlash va uni tashxislash mexanizmlarni asoslash.

Mazkur modelning tuzilishi uchta o'zaro bog'liq bloklar bilan ifodalanadi: maqsadli, mazmunli va natijali.

Biz ishlab chiqqan modelning tuzilishi to'rtta o'zaro bog'liq komponentlar bilan ifodalanadi: maxsus, ijtimoiy, individual va reflektiv.

Maxsus komponent – oliy harbiy ta'limi muassasasi davlat ta'lim standarti, modelning maqsadi va vazifalarini belgilaydigan o'quv fanlarining o'quv rejalari bilan mazmunini ifodalanadi.

Ijtimoiy komponent – ijtimoiy buyurtma, modelning aniq maqsadi sifatida biz o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni ko'rib chiqamiz.

Individual komponent oliy harbiy ta'limi muassasasi o'qituvchilarining shaxsiy rejasi, tajribasi, amaliyotidagi professional faoliyatini qamrab oladi.

Reflektiv komponent oliy harbiy ta'limi muassasasi o'qituvchilarining fikrlash va amaliy faoliyatini tahlil qilish hamda tahlil qilishga qaratilgan faoliyat turi tasniflanadi.

Ushbu model tarkibiy qismlarning o'zgaras (maqsadi, tamoyillari, komponentlari) va o'zgaruvchan (asosiy vazifalarga erishish mexanizmlari) mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Model yaxlitdir, chunki ushbu tarkibiy qismlarning barchasi bir-biri bilan bog'liq, ma'lum bir mazmunli yukni ko'taradi va yakuniy natija uchun ishlaydi – o'qituvchilar tomonidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish.

Model tizimli ravishda quyidagilarni taqdim etadi: maqsadli (maqsad va vazifalari), mazmunli (o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari va darajalari, tarkibiy qismlar, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari va darajalari); natijali blok (pedagogik shart-sharoitlar majmui, akmeologik mexanizmlarni amalga oshirishning tashkiliy, asosiy, diagnostik va korrektsiyalash usullari);

o'qitilayotgan o'quv fan asoslarining mazmunini ochib berishda shakllar, metodlar, tamoyillar, vositalar, bosqichlar, funksiyalar va darajalar inobatga olingan; oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy

kompetensiyasini rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari kommunikativ, hamkorlik, kognitiv va praktsiologik asosida aniqlashtirishilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tizimlilik, ilmiylik, ketma-ketlik, uzluksizlik, izchillik, ko'rgazmalilik kabi prinsiplarini akmeologik mexanizmlariga muvofiq tatbiq etish pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirilish uchun berilgan takliflar ilmiy-tadqiqot jarayonida qo'llanilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining mazmuni va shaxs (kasbiy va qiymat yo'nalishlari, kasbiy maqsadlarni belgilash, kasbiy motivatsiya, professional muvaffaqiyatga intilish)ga doir strukturalari, o'zaro aloqadorligi, rivojlanish funktsiyalari (akmeologik, madaniyatlararo muloqot, o'z-o'zini anglash va transformatsiya) belgilanishi asosida aniqlashtirilgan;

akmeologik yo'ndashuvning mazmuni va tuzilishi (kasbiy maqsadlarni belgilash, kasbiy muvaffaqiyatga intilish) va uning shakllanish darajalari asoslangan;

o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning har bir bosqichida akmeologik mexanizmlarni amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlar belgilangan: tashkiliy bosqich (o'qituvchilarning nazariy va uslubiy tayyorgarligi, akmeologik mexanizmlarni amalga oshirishi); asosiy bosqich (ta'lim, axborot, texnologik sharoitlarda akmeologik mexanizmlarga tayanish); diagnostika va korrektsiya bosqichi (jarayonni nazorat qilish va korrektsiyalashni ta'minlaydigan diagnostika vositalaridan foydalanish);

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining nazariy asoslarini aniqlashtirilishi ushbu komponentlarining mazmuni, o'zaro aloqadorligi, rivojlanish xususiyatlarining belgilanishi asosida takomillashtirilgan tavsiyalar;

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyasi rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari "Kiyim-kechak

ta'minotini tashkillashtirish" darsligi mazmuniga sindirilgan, o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik ta'minoti yaratilgan, o'qituvchilarining mazkur fanni o'zlashtirishida ularning o'quv-bilish faoliyatining ichki va tashqi motivatsiyasining muvofiqligini ta'minlash kabi pedagogik shart-sharoitlar yaratilgan, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyasi rivojlantirish jarayonining mohiyati, mazmuni va tuzilmasi, o'qitish texnologiyalari, modeli ishlab chiqilgan hamda mezonlari asoslangan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlari obyekt-subyekt va tizimlilik kabi prinsiplarini akmeologik mexanizmlarga muvofiq tatbiq etish shart-sharoitlari aniqlashtirilish uchun berilgan takliflar ilmiy-tadqiqot jarayonida qo'llanilgan.

Oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida qo'yiladigan maqsad, vazifa va talablarni asoslash asosida belgilangan; oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisining pedagogik toifasi kasbiy kompetensiyasi asoslab berilgan; maxsus vaziyatlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish orqali akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari va shart-sharoitlari aniqlangan; oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslarini belgilash orqali akmeologik mexanizmlar asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish modeli takomillashtirilgan.

### **3.2-§. Akmeologik yondashuv asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov natijalarining tahlili**

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning sezilarli darajada yuqori darajada o'sishini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar ta'lim jarayonida kengroq qo'llash zaruriyatini ko'rsatadi. Bu o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, kursantlarni milliy qadriyatlar va an'analarga asoslangan holda tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Tajriba guruhdagi o'qituvchilarning yakuniy natijalari nazorat guruhidagi o'qituvchilarning natijalaridan ancha yuqori bo'ldi. Bu natija akmeologik mexanizmlarning samaradorligini tasdiqlaydi va o'qituvchilarni kasbiy rivojlanishiga katta hissa qo'shishini ko'rsatadi. O'qituvchilarning bilimlarini oshirishda, ijtimoiy va ma'naviy ko'nikmalarini va qobiliyatini rivojlantirishda hamda muloqot madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu natijalar ta'lim jarayonida keng joriy etish zaruriyatini ko'rsatadi.

Tajriba guruhda zamonaviy texnologiyalar asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi tadqiqotning asosiy maqsadi. Bu natija zamonaviy ta'lim jarayonida texnologiyaning qo'llanishi mumkinligini va samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda akmeologik mexanizmlarni qo'llash kursantlarning bilimlarini oshiradi, ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarini rivojlantiradi va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ularning namoyon bo'lishining turli darajalari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasini tavsiflaydi: yuqori, o'rta va past.

Tajriba-sinov isning aniqlash bosqichida olgan natijalarimiz quyidagi xulosalar chiqarishga imkon berdi: 1) mavjud harbiy ta'lim tizimi sharoitida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tizimli va izchillikning yo'qligi, ushbu jarayonning mazmun tomonining etarli darajada rivojlanmaganligi bilan tavsiflanadi; 2) o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasini oshirish ushbu jarayonning maxsus modelini ishlab chiqish va uni akmeologik yondashuv asosida amalga oshirish orqali ta'minlanishi mumkin.

Akmeologik mexanizmlarning o'qituvchining rijolanishiga ta'siri shaxsining etukligi darajalari va bosqichlarini ochib beradi.

Ularning asosiylari: 1) kasbni egallash; 2) pedagogik mahorat; 3) o'qituvchining kasbda o'zini namoyon qilishi; 4) pedagogik ijodkorlik.

O'qituvchining shakllanishi, qoida tariqasida, o'zinning shaxsiy tajribam asosida quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi: "Men menga o'rgatilganidek o'rgataman".

Reproduktiv ta'lim modeli takrorlanadi, u kursantlarga uni ishlab chiqaradigan faoliyatni tashkil etishdan tashqari tayyor "bilim"ni etkazishga asoslangan. Ayrim pedagogik jamoalarning oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik faoliyatga kasbiy shakllanish jarayonini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlari ularning maqbulligi nuqtai nazaridan eklektik va nomuvofiqdir.

Yosh o'qituvchilar tajribali hamkasblarning ishini kuzatish orqali o'qitish usullarini o'rganadilar. Shubhasiz, barcha fakultetlar va o'quv harbiy tayyorgarlik markazi oliy harbiy ta'lim muassasalarida tobora murakkablashib borayotgan pedagogik faoliyatga yuqori darajada tayyorlashga qodir emas.

O'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash va shakllantirish muammosini hal qilishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil etishga akmeologik mexanizmlar, pedagogik mahoratni shakllantirish bo'yicha pedagogik jamoalarning harakatlarning nomuvofiqligi natijasida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari har doim ham muvaffaqiyatli tugamaydigan qiyin yo'ldan o'tadilar.

Shunday qilib, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda akmeologik mexanizmlarni talab qiladi. Shubhasiz, oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar faoliyatiga epizodik ta'sirdan ularning tizimli uzluksiz o'qishlariga, axloqiy va tarbiyaviy ta'siriga o'tish talab etiladi.

Oliy harbiy ta'limning innovatsion tizimini yaratish muammosini samarali hal etish yo'lidagi muammolardan biri bu o'quv jarayoniga akmeologik mexanizmlarga mos keladigan, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga ega, zarur pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishga qodir o'qituvchini tayyorlash muammosidir.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarini o'qituvchilarga moyil bo'lgan kursantlarni tayinlash zarurati tug'ildi; nafaqat daraja, balki unvon ham to'lash orqali ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega bo'lgan o'qituvchilar faoliyatini rag'batlantirish; zaxiradagi va iste'fodagi ofitserlarni oliy harbiy ma'lumot va shtablarda o'qituvchilik lavozimlariga xizmat qilishning katta amaliy tajribasi; o'qituvchining yukiga ilmiy tadqiqotlar va qo'shinlarda amaliyot o'tash vaqtini kiritish, bu uning malakasini va shunga mos ravishda kursantlarning kasbiy bilim darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, o'qituvchilar tarkibining uslubiy tayyorgarligini muntazam ravishda takomillashtirish, har bir oliy harbiy ta'lim muassasasida yangi tayinlangan o'qituvchilar uchun tegishli kurslarni tashkil etish; kursantlarni o'qitishning amaliy yo'nalishini kuchaytirish, dala (amaliy, maxsus) mashg'ulotlar, otishmalar sifatini oshirish orqali ularga bo'lajak ofitserlik lavozimida ko'nikmalarni singdirishga alohida e'tibor berish; oliy harbiy ta'lim muassasalarini zarur zamonaviy o'quv moddiy-texnik bazasi bilan ta'minlash, bu o'qituvchiga amaliy mashg'ulotlarni yaxshiroq olib borishga va kursantlar bilan individual ishlashga ko'proq e'tibor berishga imkon beradi. Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari texnologiya va ta'limni tashkil etishga tubdan yangi yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu mexanizmlar ko'plab printsiplar va usullarni o'z ichiga oladi. Ammo asosiysi, ta'limning fan va axborot turining oldingi sxemasidan reproduktiv ta'limdan yaratuvchi ta'limga qadar ilg'or va istiqbolli ta'limga o'tish.

Tegishli pedagogik texnologiyalarni tanlashda kursant o'quv jarayonining markaziy figurasi bo'lishi kerakligini tushunish asosiy ahamiyatga ega-uning

motivlari, intilishlari, kognitiv ehtiyojlari va maqsadlari, qobiliyatlari, munosabati, o'qituvchi yordamida ta'lim mazmuni, ta'lim texnologiyalari va shakllarini tanlash qobiliyati. Turli xil yangiliklar pedagogik texnologiyalarning yangi turlari – innovatsiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar an'anaviy texnologiyalar bilan taqqoslaganda ta'lim tizimining tarkibiy elementlari, o'quv maqsadlari, o'qituvchi va kursantning rol pozitsiyalari va funktsiyalari, o'quv va kognitiv faoliyatni tashkil etishning o'iga xos xususiyatlari, o'quv o'zaro ta'sirining shakllari bilan tavsiflangan parametrlarga muvofiq o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining yuqori ilmiy malakasini, uning pedagogik mahoratini talab qiladi. Ma'lumki, o'qituvchilar orasida eng yuqori ilmiy va pedagogik malakaga ega bo'lgan kadrlar katta qismini tashkil etadi, ular, qoida tariqasida, o'quv jarayonining zamonaviy texnologiyalarini mukammal o'zlashtiradilar.

Shu sababli, oliy harbiy ta'lim muassasasilari o'qituvchilarining ilmiy va pedagogik tayyorgarligiga, harbiy o'qituvchilar lavozimlarini egallash uchun nomzodlarni tanlashga katta e'tibor berilishi kerak, bu esa, harbiy tashkilotning yana bir muhim yo'nalishini – harbiy xizmatning obro'sini oshirishni ta'minlaydi.

Davlat talablari: o'qituvchilarni faol kognitiv faoliyat jarayoniga jalb qilish, motivatsion texnikadan foydalanish; o'qituvchilar shaxsini rivojlantirish; kursantlarning yuqori darajadagi kognitiv qiziqishi va mustaqil aqliy faoliyatini yaratish va saqlash; o'qituvchilarning ta'lim faoliyati zanjiri sifatida o'quv mashg'ulotlarini qurishga imkon beradigan usul va usullarni tanlash; interfaol shakllar orqali o'qitish; raqamli texnologiyalarning turli xil arsenalidan foydalanish.

**2-jadval****O'qituvchini baholash mezonlari**

<b>№</b>	<b>Mezon</b>	<b>Javob variantlari</b>
1	O'qituvchi intizom mazmunini aniq, aniq va izchil bayon qiladi	1-5
2	O'qituvchi mavzuni yaxshi biladi, o'qitilayotgan fanni yaxshi biladi, ushbu fan profilida amaliy tajribaga ega	1-5
3	O'qituvchi darslarga o'z vaqtida murojaat qiladi	1-5
4	O'qituvchi o'quv intizomiga qiziqishni qanday saqlashni biladi	1-5
5	O'qituvchi harbiy xizmatchilar bilan muloqotda to'g'ri va xushmuomala	1-5

**3-jadval**

**Seminarlar o'tkazgan o'qituvchini  
o'quv intizomi bo'yicha quyidagi mezonlar asosida baholash**

<b>№</b>	<b>Mezon</b>	<b>Javob variantlari</b>
1	O'qituvchi guruh va interaktiv hamkorlikka qaratilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanadi	1-5
2	O'qituvchi intizom materialini izchil va teng ravishda taqsimlaydi	1-5
3	O'qituvchi darslarga o'z vaqtida murojaat qiladi	1-5
4	O'qituvchi o'quv intizomiga qiziqishni qanday saqlashni biladi	1-5
5	O'qituvchi talabalar bilan muloqotda to'g'ri va xushmuomala	1-5
6	O'qituvchi o'z kursi doirasida munozarani samarali tashkil qilishni biladi	

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini jadal rivojlantirish ko‘zda tutilgan muammolarni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni belgilab berdi.

Oliy harbiy ta’lim tizimiga kelsak, ushbu sohada o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lgan, o‘qituvchilarni qanday rag‘batlantirishni biladigan, ularga shaxs va bo‘ljak mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam beradigan o‘qituvchini tayyorlash muhimdir. Har bir davlatning asosiy asosi o‘qituvchi bo‘lib, u o‘zining kundalik vazifalarini kerakli darajada bajarib, butun millatning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi va shuning uchun jamiyatning asosiy asosidir.

Shuning uchun biz yuqori malakali o‘qituvchini tayyorlashning muammolari va echimlarini turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishimiz kerak:

Birinchisi – 2024-yil 1-fevraldagi “O‘qituvchining maqomi to‘g‘risida”gi qonunga asoslanib, o‘qituvchini o‘zi o‘qitadigan fan bo‘yicha o‘quv dasturini to‘liq o‘zlashtirishga e‘tibor qaratish lozim.

Ikkinchisi – 4K egalik qilish (kommunikatsiya, hamkorlik, aloqa, tanqidiy fikrlash) – zamonaviy dunyoda talab qilinadigan kompetensiyalar.

Uchinchisi – o‘qitish jarayonida o‘qituvchi ta’limning etakchi tendentsiyalariga tayanishi kerak.

To‘rtinchisi – o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda oshirish (ilmiy daraja va unvonlarni olish).

Beshinchidan, “mahalla – ta’lim muassasasi – ota-onalar” o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud.

Oltinchisi – Sharq buyuk mutafakkirlari, jadidlar va pedagogik olimlarning g‘oyalarini milliy ta’lim jarayoniga izchil joriy etish.

Ettinchisi – rejalashtirilgan rejalarni amalga oshirishning samarali mexanizmini ishlab chiqish bilan o‘qituvchilarni tayyorlashning bosqichma-bosqich sxemasini ta’minlash.

Sakkizinchi – o‘qituvchilarni tayyorlashning gorizontal va vertikal tizimlarini joriy etish.

To‘qqizinchi – ta‘lim tashkilotlari faoliyatini muntazam ravishda kuzatib borish.

O‘ninchi – ta‘lim sifatini oshirishga yordam beradigan samarali ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish.

Bizning fikrimizcha, o‘qituvchilarning e‘tiborini har bir kursant bilan kasbiy faoliyatda ishlashga qaratish ham muhimdir. Kursantlarni tayyorlash darajasi har xil bo‘lgani uchun va shuning uchun ularning har biriga maqsadli yondashish zarur. Bu jarayon murakkab, chunki o‘qituvchining bitta darsida bir nechta usullarni qo‘llash mumkin, ya‘ni o‘qituvchining roli murakkablashadi, ammo natijada eng maqbul va eng yuqori natijaga erishish mumkin bo‘ladi.

Bugungi kunda biz oliy harbiy ta‘lim tizimida bunga intilamiz. Respublikamiz ijtimoiy dinamikaning keskin o‘sishi – sanoatdagi texnologiyalarning rivojlanishi va o‘zgarishi, iqtisodiyot rivojlanishidagi tarkibiy o‘zgarishlar, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kontekstning o‘zgarishi bilan bog‘liq ulkan maqsadni qo‘yganligi sababli, mustaqil fikrlaydigan, o‘z hayotiy pozitsiyasiga ega va yosh avlodning qat‘iy e‘tiqodiga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash uchun ma‘naviy va axloqiy asoslarni yaratish. Shunday qilib, aholining bunday ulkan qatlamini o‘qitish va milliy tarbiyalash o‘qituvchilardan kursantlarning ongi va dunyoqarashini o‘zgartirishning eng muhim omili va asosiy asosiga aylangan oliy harbiy ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha ulkan kuch va bilimlarni talab qiladi. Shuning uchun zamonaviy O‘zbekiston ta‘limining ijtimoiy yo‘naltirilgan yo‘nalishi kursantlarning to‘liq rivojlanishi uchun me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy dunyoda inson kapitali, intellektual salohiyat, innovatsion g‘oyalar, yuqori texnologiyalar jadal va barqaror rivojlanishning asosiy asosini tashkil etadi.

Yuqori texnologiyali sohalarning raqobatbardoshligi malakali ishchi kuchi va innovatsion mexanizmlarda mujassam bo‘lgan maxsus bilim, ko‘nikma

va innovatsiyalar darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy rivojlanishning kaliti aynan pedagogik fan va ta'lim ekanligini chuqur anglab, biz inson kapitaliga investitsiyalarni davlat siyosati darajasiga ko'tardik. Davlatimiz ko'magida dunyoning eng yaxshi ilmiy va ta'lim markazlarida pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimli asosda amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda yuqori intellektual salohiyatga ega va fanning muayyan sohalarida chuqur bilimga ega bo'lgan ijodiy fikrlaydigan o'qituvchilarni tayyorlash ustuvor vazifadir.

Yangi O'zbekistonning 2022-yil 28-yanvardagi rivojlanish strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarini ochiqlik va liberallashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish bo'yicha izchil ta'lim islohotlari amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda dunyoning turli mamlakatlarining ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalaridan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari mazmuniga oid yangi savollar, shuningdek, zamonaviy ta'lim paradigmasiga o'tish bilan bog'liq.

Mavjud muammolar operativ ravishda hal qilinadi. Takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlari kasbiy standart talablari asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Bu malakalarni baholash muammosini hal qilish bilan bog'liq: oliy harbiy ta'lim muassasasining zamonaviy o'qituvchisiga qo'yiladigan davlat ta'lim standartida va malaka talablarida taqdim etilgan ta'lim standartlarida taqdim etilgan kompetensiyasini va o'qituvchilarning mehnat funktsiyalarini muvofiqlashtirish.

Texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi munosabati bilan oliy harbiy ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasining rivojlanishiga ta'sir etadigan omillar tez o'zgarib, yangi xususiyatlarga ega bo'lishini, "transfessiya" va "transprofessionalizm" tushunchalari paydo bo'lganligini ta'kidlamoqda.

Transmissiya deganda turli ixtisoslashgan sohalarga tegishli kasbiy kompetensiyasining sintezi va yaqinlashuvi asosida amalga oshiriladigan

faoliyatning maxsus turi tushuniladi. Transfessiyalar transdisipliner tuzilishga ega va kasbiy faoliyatning turli sohalaridagi konvergent texnologiyalardan foydalanadi. Turli kasblarni sintez qiladigan konvergent faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini tavsiflovchi mutaxassisning ajralmas sifati transprofessionalizm deb ataladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan, muammo iqtisodiyotning ehtiyojlariga javob beradigan tashkilotlar xodimlarining yo‘naltirilgan shakllanishida yotadi, bu oliy harbiy ta‘lim muassasalari uchun o‘qituvchilarni tayyorlash tizimini rivojlantirmasdan samarali amalga oshirilmaydi. Ilmiy nuqtai nazardan, muammo ta‘limning fan sohasi nazariyasini ishlab chiqishdir. Amaliy nuqtai nazardan, muammo oliy harbiy ta‘lim muassasalarini rivojlanishini ilmiy va uslubiy qo‘llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqishda yotadi. Oliy harbiy ta‘lim muassasasi o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish o‘qituvchilar, pedagoglar, psixologlar, sotsiologlar, iqtisodchilar va boshqa sohalar mutaxassislarining ilmiy kuchlarini samarali hal etishni talab qiladigan fanlararo muammo.

“Oliy harbiy ta‘lim muassasasi o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish” nomli 20 soatlik qisqa muddatli kursni (4-ilova) tashkil etish yo‘li bilan hal qilindi va tasdiqlangan o‘quv rejasiga muvofiq mazmuni quyidagicha belgilandi: 1) o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning mohiyati va o‘ziga xosligi; 2) o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning bo‘yicha xorijiy tajribalar; 3) o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning meyoriy-huquqiy asoslari; 4) o‘qituvchining huquq va majburiyatlari; 5) pedagogik mahorat va kreativlik; 6) kursantlarning psixologiyasi, qobiliyatlari va motivatsiyasi; 7) o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini baholash; 8) kursantlar bilimini baholash.

Mazkur kursni tashkil etilgani dissertatsiyadagi vazifalarni ruyobga chiqarishga yordam berdi.

Akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari uch bosqichda o'tkazilgan: birinchi bosqich – aniqlovchi bosqich (2021-2022 o'quv yili), ikkinchi bosqich – rivojlantiruvchi bosqich (2022-2023 o'quv yili), uchinchi bosqich – umumlashtiruvchi bosqich (2023-2024 o'quv yillari).

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish obyektlari sifatida uchta oliy harbiy ta'lim muassasasi: Tajriba-sinov ishlarida Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurtidan 72 respondentlar, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasidan 49 respondentlar va O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazidan 67 respondentlar, jami 188 nafar respondentlari ishtirok etdi. 188 nafar o'qituvchidan tajriba guruhida 95 nafar, nazorat guruhida 93 nafar o'qituvchilar qatnashdi.

Biz tajriba-sinov ishlarini o'tkazish dasturini ishlab chiqdik va mazkur dasturga muvofiq, birinchi bosqichda (2021-2022) muammoni hal qilishning umumiy komponentlari ishlab chiqildi, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning umumiy masalalari bo'yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasining haqiqiy holati aniqlandi, pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish, kuzatish, kasbiy kompetensiyaning dastlabki darajasini aniqlaydigan so'rovnoma natijalari tahlil qilindi, oliy harbiy amaliyotning o'quv rejalari va dasturlari o'rganildi, umumlashtirish va mavhumlashtirish usullari muammoni tahlil qilishda va vazifalarni shakllantirishda, pedagogik vaziyatlarni modellashtirishda ishlatildi.

Ikkinchi bosqichda (2022-2023) tajriba-sinov ishlari olib borildi, uning davomida ishning dolzarbligi tasdiqlandi, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tizimi sinovdan o'tkazildi, tadqiqot metodologiyasi takomillashtirildi, o'qituvchilarning tanlangan kasbga munosabati, tanlov motivlari, kasbiy qiziqishlari, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarning shakllanish darajasi o'rganildi, kasbiy faoliyatning turli

bosqichlarida ko‘nikmalar va shaxsiy faoliyatning o‘zaro boqlikligi aniqlandi, baholash mezonlari va parametrlari aniqlandi, pedagogik amaliyot davridagi so‘rovnomalar kabi tadqiqot usullari qo‘llanildi.

Uchinchi bosqichda (2023-2024) o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish muammosi bo‘yicha tajriba-sinov ish natijalari umumlashtirildi. Oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi va joriy etildi, dissertatsiya va avtoreferat rasmiylashtirildi.

2021-2024 o‘quv yillarida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida olingan empirik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, aniqlangan pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayoniga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarda ishtirok etgan o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning sezilarli darajada yuqori darajada o‘shirishini ko‘rsatdi.

#### 4-jadval

##### O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasiga erishganlik darajasi (sonda)

O‘qituvchilarning natijalarga erishganlik darajasi	Aniqlovchi bosqich		Rivojlantiruvchi bosqich		Umumlashtiruvchi bosqich	
	tajriba guruhlari	nazorat guruhlari	tajriba guruhlari	nazorat guruhlari	tajriba guruhlari	nazorat guruhlari
yuqori	7	5	9	10	11	12
o‘rta	31	32	47	42	49	43
past	57	56	59	41	35	38

5-jadval

**O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari**

Bosqich-lar	O'qituvchilar soni	O'zlashtirish darajalari							
		Bajardi		Qisman bajardi		Xato bajardi		Bajarmadi	
		sonda	foizda	sonda	foizda	sonda	foizda	sonda	foizda
Tajriba boshida	188	21	11,2%	99	52,6%	36	19,1%	32	17,1%
Tajriba yakunida	188	63	33,5%	83	44,1%	18	9,6%	24	12,8%

Jadval va diagrammada tajriba-sinov ishining bosqichlaridagi natijalar ko'rsatilgan.

Tajriba-sinovning shakllantirish bosqichida olingan natijalarni jadvalda va diagrammada aks ettiramiz (1-diagramma va 1-jadval).

6-jadval

**O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari**

Bosqich-lar	O'qituvchilar soni	O'zlashtirish darajalari					
		Yuqori		O'rta		Past	
		sonda	foizda	sonda	foizda	sonda	foizda
Tajriba boshida	188	21	11,2%	99	52,6%	68	36,2%
Tajriba yakunida	188	63	33,5%	83	44,1%	42	22,4%

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish darajalari tajriba-sinov ishlarining ta'kidlovchi va shakllantiruvchi bosqichlarida amalga oshirilgan ishlar 2-jadvalda o'z aksini topgan.

**7-jadval**

**O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyani rivojlantirish darajalari**

Tajriba-sinov ishlarining bosqichlari	O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi darajasi					
	past		o'rta		yuqori	
	O'qituvchilar soni	%	O'qituvchilar soni	%	O'qituvchilar soni	%
Ta'kidlovchi	68	36,2%	99	52,6%	21	11,2%
Shakllantiruvchi	42	22,4%	83	44,1%	63	33,5%

**3-jadval**

**Tajriba-sinov ishlarining bosqichlarida olingan natijalar**

Tajriba-sinov ishlarining bosqichlari	O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyani rivojlantirish darajalari					
	past		o'rta		yuqori	
	O'qituvchilar soni	%	O'qituvchilar soni	%	O'qituvchilar soni	%
Ta'kidlovchi	35	57%	23	38%	3	5%
Shakllantiruvchi	27	44%	26	43%	8	13%

Nazorat guruhi va tajriba-sinov guruhiga nisbatan o'qituvchilarda tajriba-sinov ishi natijalarining umumiy jadvalini (4-jadval) taqdim etish muhimdir.

**8-jadval**

**Nazorat va tajriba guruhlarining tajriba-sinov ishi natijalari**

O'qituvchilar guruhi	O'qituvchilarning umumiy soni	O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini aniqlash uchun olingan ma'lumotlar					
		past		o'rta		yuqori	
		O'qituvchilar	%	O'qituvchilar	%	O'qituvchilar	%
Nazorat guruhi	93	31	33,4%	42	45,1%	20	21,5%
Tajriba guruhi	95	21	22%	48	50,5%	26	27,5%

## 9-jadval

### Tajriba-sinov bosqichlarining natijalari

Tajriba-sinov ishlarining bosqichlari	past	o'rt	yuqori	jami
Ta'kidlovchi	$x_{11}=68$	$x_{12}=99$	$x_{13}=21$	$n_1=188$
Shakllantiruvchi	$x_{21}=42$	$x_{22}=83$	$x_{23}=63$	$n_2=188$
$\Sigma$	$n_{11}+n_{22}=110$	$n_{12}+n_{22}=182$	$n_{13}+n_{23}=84$	

Jadval va diagrammalarda keltirilgan izlanuvchi-ta'kidlovchi bosqichida nazorat guruhlarida 21 nafar o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasi yuqori, o'qituvchilarning 99 nafarida o'rtacha daraja va o'qituvchilarning 68 respondentlari past darajaga ega.

Tajriba guruhidagi o'qituvchilarni anketa so'rovinomasi olingan natijalar nazorat guruhida olingan natijalardan sezilarli darajada farq qiladi.

Nazorat guruhida o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyasini yuqori darajada rivojlanishi o'qituvchilarning 5 foizida, o'rtacha daraja – o'qituvchilarning 38 foizida, past daraja – o'qituvchilarning 57 foizida kuzatiladi.


Tajriba-sinov ishlar yakunlari bo'yicha jadval va diagrammalarda keltirilgan shakllantiruvchi bosqichining diagnostik natijalari shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida 27,5 foiz (26 nafar) o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyasi rivojlangan o'qituvchilarda yuqori darajaga ega bo'ldi, o'qituvchilarning 50,5 foiz (48 nafar) o'qituvchilar o'rtacha darajaga ega, 22 foiz (21 nafar) o'qituvchilar past darajaga ega.

Tajriba guruhidagi o'qituvchilarni o'rganish davomida olingan natijalar nazorat guruhida olingan natijalardan sezilarli darajada farq qiladi.

Nazorat guruhida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning yuqori darajasi o'qituvchilarning 20 respondentlarida – 21,5% da, o'rtacha darajasi – o'qituvchilarning 42 respondentlari – 45,1% da, past darajasi 31 respondentlari – o'qituvchilarning 33,4% da kuzatiladi.

Tajriba-sinov ishlaridagi o‘rtacha qiymatlar uchun ishonch oraliqlarining bir-biri bilan ustma-ust tushishi (tengligi) haqidagi  $H_0: a_x = a_y$  farazni ilgari surib, unga qarama-qarshi faraz:  $H_1: a_x \neq a_y$  ekanini yuqoridagi ma’lumotlar asosida tekshirib, shu oraliqlarda ishonchi qiymatlarga ega ekani Styudent statistikasi orqali tekshirildi.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlaridan olingan natijalarni Styudent mezonini asosida tekshirilganda T statistik qiymat t kritik qiymatdan katta bo‘lgani uchun  $H_0$  gipotezani qabul qilishga asos yo‘q, shuning uchun  $H_1$  gipoteza qabul qilinadi. Bundan ko‘rinadiki, tajriba so‘ngidagi natijalar tajriba boshidagi natijalarga nisbatan samarali ekanligi statistik usullar orqali tasdiqlandi. Tajriba oxiridagi samaradorlik 1,14 baraborga ortiq, ya’ni 14 foiz yuqoriligi isbotlandi.



**3-rasm. Tajriba oxiridagi samaradorlik ko‘rsatkichlari**

Ushbu rasmlar va statistik hisoblar bo‘yicha xulosa qilish mumkinki, maxsus komponenti bo‘yicha samaradorlik 14%, ijtimoiy komponenti bo‘yicha samaradorlik 14%, individual komponenti bo‘yicha samaradorlik 14% va refleksiv komponenti bo‘yicha samaradorlik 13% ga, umumiy holda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining rivojlanganlik darajasi 14% ga yuqori ekani statistik usullar orqali isbotlandi. Shunday qilib, tajriba-sinov ishi

davomida biz ajratib ko'rsatgan pedagogik sharoitlar o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlanlantirish uchun samarali ekani tasdiqlandi.

2021-2024 o'quv yillarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida olingan empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, aniqlangan pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarda ishtirok etgan o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni tavsiflovchi ko'rsatkichlarning sezilarli darajada yuqori darajada o'sishini ko'rsatdi.

Harbiy ta'lim tizimini optimallashtirish, uning ta'lim makoniga integratsiyalashuvi, takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlarini joriy etish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda akmeologik mexanizmlarni amalga oshirish o'quv jarayonini faollashtirishga qaratilgan tubdan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish zarurligini taqozo etdi. Binobarin, oliy harbiy ta'lim tizimi, birinchi navbatda, yuqori malakaga, harakatchanlikka va professionallikka ega bo'lgan ijtimoiy va kasbiy faol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilishi kerak, bu unga o'zini o'z hayoti va kasbiy faoliyatining subyektivi sifatida anglashga imkon beradi.

Belgilangan muammoni hal qilishda yordam berish zamonaviy ta'lim o'qituvchilarning shaxsiy o'sishiga, ularning shaxsiy potentsiali rivojlantirishni, subyektivligini va umuman ijodiy o'zini o'zi anglashga ustuvor yo'nalishi bo'lishi mumkin.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda va bu jarayon murakkabligi bilan ajralib turishi, turli xil shakllanish dinamikasiga, o'qituvchilarda uning namoyon bo'lish xususiyatlariga ega. Bir qator obyektiv va subyektiv sabablar o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, uni pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayoni pedagogik tadqiqotlarda tegishli ko'rib chiqilmasligiga olib keldi.

Aniqlangan pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar harbiy pedagogikani rivojlantirishga, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini pedagogik ta'minlashni nazariy va uslubiy asoslashga yordam beradi, bu esa, o'quv samaradorligini oshirish muammosini yanada ilmiy tushunishga yordam beradi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini pedagogik ta'minlashning ishlab chiqilgan qoidalari pedagogikaning kategorik-kontseptual apparatini kengaytiradi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ishlab chiqilgan modeli, shu jumladan, maqsadli, tarkibiy, funktsional va samarali bloklar, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini pedagogik ta'minlashning tizimli tashkil etilishini ochib beradi, bu esa, o'quv jarayonining nazariy va amaliy tadqiqotlarini o'tkazish imkonini beradi. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan pedagogik dastur o'quv jarayonining maqsad va vazifalariga muvofiq kursantlarni tayyorlash va shaxsini rivojlantirish jarayonlarini amalga oshiradi, uning kasbiy yo'nalishini ta'minlaydi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini pedagogik qo'llab-quvvatlashning tizimli taqdimoti o'quv texnologiyalarini oqilona tanlash va samarali qo'llash, o'qitiladigan o'quv fanlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini pedagogik qo'llab-quvvatlashning o'ziga xosligi va hisobga olinishi uning samaradorligini oshiradi va ularni oliy harbiy ta'lim muassasasida amalga oshirish imkonini beradi.

Modelda taqdim etilgan ko'rsatkichlari va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini baholovchi darajalar ularning kasbiy rivojlanishining

individual traektoriyalarini tavsiflaydi va shu bilan o'qituvchilarning pedagogik o'zaro munosabatlarining moslashuvchan o'zgaruvchanligini ta'minlaydi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining rivojlanishini baholash uchun ishlab chiqilgan diagnostika vositalari yordamida olingan natijalarni tahlil qilish, matematik hisob-kitoblar va ekspert baholashlari asosida miqdoriy ballar sifat ko'rsatkichlariga aylantirildi, bu esa, texnologiyani tanlashda tasdiqlangan mexanizmlarga hissa qo'shdi o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning rejalashtirilgan darajalariga erishishni ta'minladi. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli oliy harbiy ta'lim muassasasining o'quv jarayoni samaradorligini oshirish omili bo'lib xizmat qildi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni pedagogik qo'llab-quvvatlash – o'qituvchilarning ko'p yo'nalishli pedagogik faoliyati, bu oliy harbiy ta'lim muassasasining akademik resurslarini faollashtirishni va ular bilan tabaqalashtirilgan pedagogik o'zaro hamkorlik jarayonida o'qituvchilarning shaxsiy resurslarini amalga oshirishni belgilaydi maxsus yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish.

O'qituvchilarning resurslari individual xususiyatlar bilan belgilanadi va maxsus, ijtimoiy, universal va refleksiv komponentlarni o'z ichiga oladi.

Akademik resurslarga oliy harbiy ta'lim muassasasining o'quv jarayonini saqlash, tashkil etish va boshqarish, uning xususiyatlari kiradi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi – o'qituvchilarning harbiy burchni bajarish bilan bog'liq kasbiy faoliyatning maqsadlari, motivlari va xususiyatlari bilan belgilanadigan o'quv jarayonining subyektlari sifatidagi integrativ tavsifi, bu shaxsiy va kasbiy sifatlar majmui, harbiy xizmat vazifalarini turli vaziyatlarda shakllangan kompetensiyalar va hayotiy tajribalar asosida hal qilish qobiliyati va tayyorligi kiradi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasiga ularning o'zini o'zi boshqarish faoliyati (o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi namoyon qilish) va o'qituvchilar va komandirlarning maqsadli boshqaruv faoliyati kiradi, ular davomida o'qituvchi shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun o'zining individual traektoriyasini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

*Oliy harbiy ta'lim muassasasining o'quv jarayoni kasbiy kompetensiyani pedagogik qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi:* o'qituvchilarning kasbiy va xizmat faoliyatlarini uyg'unlashtirish; kasbiy kompetensiyasini egallash va ularni real sharoitda qo'llash o'rtasidagi vaqt oraliqining noaniqligi; xizmat vazifalarini bajarishda tajribani talab qilmaydigan kasbiy faoliyat muammolarini hal qilishga imkon beradigan bilim hajmini o'zlashtirish; harbiy ta'limni bitta ta'lim dasturida standartlashtirish, harbiy maxsus fanlar bo'yicha o'qish vaqtining etarli emasligi muammosini keltirib chiqaradi; oliy harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish bo'yicha kasbiy rivijlanashiga qo'yiladigan davlat talablari va malaka talablarini hisobga olish; kursantning asosiy ta'lim dasturining individual o'zgaruvchan qismini ishlab chiqish qiyinligi; kursantlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish; birinchi kurs kursantlarini oliy harbiy ta'lim muassasasining yangi sharoitlari va talablariga imkon qadar tezroq moslashtirish zarurati.

## 10-jadval

### Tadqiqot metodlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi

<b>№</b>	<b>Uslubiy bosqichlar</b>	<b>Mazmuni</b>
1	Nazariy tahlil	Tadqiqotning aniqlash bosqichida akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy adabiyotlar o'rganildi
2	Tadqiqot ishlari	Tadqiqotning asosiy qismi tajriba-sinov ishida tadqiqot usuliga asoslangan bo'lib, unda 188 nafar oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari ishtirok etdi
3	Diagnostika va	So'rovnomalar, suhbatlar va kuzatishlar o'tkazildi

	korrektsiya	
4	Pedagogik faollik darajasi	Tajriba guruh o'qituvchilari nazorat guruhiga nisbatan pedagogik faollikda sezilarli o'sish ko'rsatdi
5	Texnologiyani qo'llash samaradorligi	Tajriba guruhda qo'llanilgan interfaol metodlar (jamoaviy ishlar, muammoli vaziyatlar tahlili, loyiha usullari, trening, disput, diskussiya) o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali bo'ldi
6	O'qituvchilar qoniqish darajasi	So'rovnoma natijalariga ko'ra, tajriba guruh o'qituvchilari orasida qoniqish darajasi 79% ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhda bu ko'rsatkich 42% ga teng bo'ldi
7	Shaxsiy rivojlanish	Tajriba guruh o'qituvchilari shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirdi va natijada tajriba guruhda bu ko'rsatkich 78% ni tashkil etdi, nazorat guruhda esa, 37% ga teng bo'ldi
8	Ijtimoiy moslashuvchanlik	Tajriba guruh o'qituvchilari shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirdi va natijada tajriba guruhda bu ko'rsatkich 76% ni tashkil etdi, nazorat guruhda esa, 37% ga teng bo'ldi

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish modeli ularning kasbiy kompetensiyasini pedagogik ta'minlashning nazariy va uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchilarning umumiy qoniqish darajasi 87% ga yetishi, bu esa, an'anaviy usulda o'tkazilgan darslardan 18% yuqori ekanligi, akmeologik mexanizmlar asosida o'tkazilgan o'quv mashqulotlarning o'qituvchilarga manzur kelishini ko'rsatadi. Bu natija, ta'lim jarayonida kursantlarni qiziqtirish va motivatsiyasini oshirishda akmeologik mexanizmlarning muhimligini tasdiqlaydi. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida biz tomonimizdan bir qancha metodlari 8 ta uslubiy bosqichlardan iborat bo'ldi. Bular 1-jadvalda o'z aksini torgan.

*Nazariy tahlil:* tadqiqotning aniqlash bosqichida akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta'lim muasasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Bir qator olimlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida asosiy tushunchalar va ularning pedagogik jarayondagi o'rni belgilandi.

*Tadqiqot ishlari:* tadqiqotning asosiy qismi tajriba-sinov ishida tadqiqot usuliga asoslangan bo'lib, unda 188 nafar oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlarini ikki guruhga bo'lingan holda o'tkazildi: tajriba guruh va nazorat guruhi. Tajriba guruhda akmeologik mexanizmlar asosida interfaol metodlar qo'llanildi, nazorat guruhda esa, an'anaviy o'qitish usullari saqlanib qolindi.

*Diagnostika va korreksiya:* tajriba-sinov natijalarini baholash uchun diagnostik metodlar qo'llanildi. Bu jarayonda so'rovnomalar, suhbatlar va kuzatishlar o'tkazilib, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiya darajasi aniqlandi. Natijalar statistik tahlil orqali qayta ishlanib, olingan ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarildi. Tajriba-sinov ishlari natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda akmeologik mexanizmlarning samaradorligini ko'rsatdi.

*Pedagogik faollik darajasi:* tajriba guruh o'qituvchilari nazorat guruhiga nisbatan pedagogik faollikda sezilarli o'sish ko'rsatdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, tajriba guruh o'qituvchilarida pedagogik faollik darajasi 61% ga oshdi, nazorat guruhida esa, bu ko'rsatkich 39% ni tashkil etdi.

*Texnologiyani qo'llash samaradorligi:* tajriba guruhda qo'llanilgan interfaol metodlar (jamoaviy ishlar, muammoli vaziyatlar tahlili, loyiha usullari, trening, disput, diskussiya) o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali bo'ldi. Misol uchun, jamoaviy ishlar orqali o'qituvchilar orasida hamkorlik va muloqot ko'nikmalari 83% ga oshdi. Yangi texnologiyalar joriy etilishi: tajriba guruhda yangi texnologiyalar (onlayn platformalar, interfaol ta'lim resurslari, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini loyihalash, o'z-o'zini boshqarish) joriy etilishi o'qituvchilarning o'zaro muloqot qilish va bilim almashish ko'nikmalarini oshirdi. O'qituvchilarda bu ko'nikmalar 70% ga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida esa, bu ko'rsatkich 30% ni tashkil etdi.

*O'qituvchilar qoniqish darajasi:* tajriba guruh o'qituvchilari o'qitish jarayonidan yuqori darajada qoniqish bildirdilar. So'rovnoma natijalariga ko'ra, tajriba guruh o'qituvchilari orasida qoniqish darajasi 79% ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhda bu ko'rsatkich 42% ga teng bo'ldi.

*Shaxsiy rivojlanish:* tajriba guruh o'qituvchilari shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirdi va natijada tajriba guruhda bu ko'rsatkich 78% ni tashkil etdi, nazorat guruhda esa, 37% ga teng bo'ldi.

*Ijtimoiy moslashuvchanlik:* tajriba guruh o'qituvchilari ijtimoiy muhitga tez va samarali moslashish ko'nikmalarini rivojlantirdi. So'rovnomalar natijasida tajriba guruhda ijtimoiy moslashuvchanlik 76% ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhda bu ko'rsatkich 38% ga teng bo'ldi.

Shuningdek, biz, tadqiqot jarayonida umumiy holda yuqorida jadvalda aks etgan uslubiy bosqichlarni to'rtta asosiy bosqichlarga tayandik. Bular qo'yidagilardan iborat: tashkiliy, diagnostika, korreksiya va tahlil.

Tadqiqot natijalari bo'yicha tajriba guruhda qo'llanilgan akmeologik mexanizmlar o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ko'rsatdi. Ushbu natijalar asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida akmeologik mexanizmlarni keng qo'llash tavsiya etiladi. Bu mexanizmlar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga, ularning ijtimoiy munosabatlar tizimida muvaffaqiyatli moslashuviga katta hissa qo'shadi.

Yuqorida keltirilgan natijalar va muhokamalar asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: akmeologik mexanizmlarni qo'llash o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi: bilim, ko'nikma va malakalari darajasi, ijtimoiy faol, muloqot, hamkorlik qobiliyatlari va kreativ darajasida sezilarli o'sishga olib keldi.

Akmeologik mexanizmlar ta'lim jarayonida kursantning yuksalishi va rivojlanishini ta'minlashda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi hamda o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda samarali usul

bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalari darajasi 14% ga oshgani bu mazkur uslubning natijadorligini tasdiqlaydi. Bu, o'z navbatida, tarixiy ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi sezilarli darajada oshdi. Bu natija akmeologik mexanizmlarning ularning ongini shakllantirish va ijtimoiy mas'uliyatli kursantlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kasbiy kompetensiyasining 14 ballga oshishi, o'qituvchilarning ongini shakllantirishda akmeologik mexanizmlarning muhimligini ko'rsatadi. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni kasbiy mas'uliyatli va faol fuqarolarga aylantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda o'qituvchilarning muloqot va hamkorlik qobiliyatlarining kuchayishi, eksperiment davomida 56% dan 73% ga oshishi, akmeologik mexanizmlarning o'quv jarayonida o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda qanday ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Bu natija ta'kidlangan pedagogik mexanizmlarning samaradorligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, tajriba-sinov ishlarining natijasida o'qituvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati 30% ga oshganligi va rivojlanishi o'qituvchilarning keng qamrovli va muammoli fikrlash qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilarda muloqot va hamkorlik qobiliyatlari kuchaydi. Bu mexanizmlar, kursantlarda jamoaviy ishlash va birgalikda bilim olish jarayonlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Kreativ fikrlash qobiliyatlarining 30% ga oshishi, akmeologik mexanizmlarning ijodiy jarayonlarga ta'sirini tasdiqlaydi. Bu, o'qituvchilarning keng qamrovli va muammoli fikrlash qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kursantlarning o'quv jarayonidan qoniqish darajasi sezilarli darajada oshdi. Bu mexanizmlar, ta'lim jarayonida o'qituvchilarni qiziqtirish va motivatsiyasini oshirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, akmeologik mexanizmlar asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish: bilim, ko'nikma va malakalar darajasi,

muloqot, hamkorlik qobiliyatlari, ijodiy fikrlash darajasini oshirishda samarali ekanligi tasdiqlandi. Bu mexanizmlar ta'lim jarayonini yanada samarali qilish va o'qituvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, akmeologik mexanizmlarning ta'lim jarayonida yanada kengroq qo'llanishi va bu yondashuv asosida yangi metodikalar ishlab chiqilishi lozim.

Mazmunli blok quyidagilarni o'z ichiga oladi: kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari – kompetensiyalar (ijtimoiy va shaxsiy, qo'mondonlik, kasbiy ixtisoslashtirilgan, harbiy ixtisoslashtirilgan), kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari, o'qituvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishning maqsadli pedagogik dasturi, nazariya va tushunchalar, kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik shartlari, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi pedagogik ta'minlashda qo'llaniladi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik dasturi integratsiyalashgan va tabaqalashtirilgan xususiyatga ega bo'lib, o'qituvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish darajasi va bu bo'yicha o'zgaruvchan kasbiy kompetensiyani pedagogik qo'llab-quvvatlashda amalga oshiriladigan pedagogik vositalar to'plamini umumlashtirishga imkon beradi.

Tadqiqotning metodik qismi ikki asosiy bosqichdan iborat: nazariy va tajriba.

Tajriba-sinov bosqichda esa, nazariy bosqichda ishlab chiqilgan metodika amalda sinovdan o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlarida 188 nafar respondentlar ikkita guruhga ajratildi: tajriba va nazorat guruhi.

Tajriba guruhga zamonaviy texnologiyalar asosida darslar o'tilsa, nazorat guruhiga esa, odatiy darslar o'tilgan. Har ikki guruh o'qituvchilari dastlabki va yakuniy testlar orqali baholandi. Testlar o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarini o'lchashga qaratilgan edi.

Tadqiqot natijalari tajriba guruhda akmeologik mexanizmlar asosida ta'lim olgan o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Faoliyat o'z-o'zidan mavjud emasligi sababli, uning "tashuvchisi", ya'ni kompetensiya subyekti, o'qituvchining o'zidan ajratilgan holda, kompetensiyaning uchinchi komponenti subyektiv bo'lib, u axloqiy qadriyatlar va hayotiy ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari kiradi. Ushbu tuzilma biz taklif qilayotgan zamonaviy o'qituvchining sifat modelida o'z aksini topgan.

Statistik tahlil metodlari yordamida tajriba-sinov natijalari tahlil qilindi va ularning ishonchliligi baholandi. Tadqiqotda ishtirok etgan o'qituvchilarning soni, ularning yosh xususiyatlari va boshqa demografik ko'rsatkichlar ham hisobga olindi.

Tajriba-sinov natijalari o'qituvchilarning akmeologik mexanizmlar asosida o'qitilgan kasbiy kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirganini ko'rsatdi.

***Natijalar quyidagi raqamlar bilan ifodalangan:***

1) *Bilimlarni o'zlashtirish:* tajriba-sinov ishlari boshlanishida o'qituvchilarning bilim darajasi o'rtacha 63% bo'lgan. Tajriba-sinov ishlari yakunida esa, bu ko'rsatkich 79% ga yetdi. Bu 18% lik o'sish akmeologik mexanizmlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

2) *Kasbiy kompetensiyasining rivojlanishi:* o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini baholash uchun maxsus testlar o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari avvalida o'qituvchilarning o'rtacha balli 49 balldan 29 ballni tashkil etdi. Tajriba-sinov ishlari yakunida esa, bu ko'rsatkich 37 ballga ko'tarildi, ya'ni 9 ballga o'sish kuzatildi.

3) *O'qituvchilarda muloqot va hamkorlik:* akmeologik mexanizmlar asosida o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlar o'qituvchilarning o'zaro muloqoti va hamkorligini kuchaytirgani kuzatildi. Tajriba-sinov ishlari davomida

